



GEOLOGIYA SOHASIDAGI ISHLARNING JORIY HOLATI VA ISTIQBOLLARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-oktabr kuni geologiya ishlarini kengaytirish, foydali qazilmalarning istiqbolli konlarini aniqlash va o‘zlashtirish rejalariga bag‘ishlangan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda sanoatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘yilgan katta marralarga erishishda iqtisodiyotni mineral resurslar bilan ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda yurtimizda geologiya sohasini transformatsiya qilish doirasida uning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, ilmiy izlanishlar va kadrlar tayyorlash kuchaytirildi.

Taqdimotda sohada qilingan ishlar, foydali qazilmalarni aniqlash va o‘zlashtirishga xorijiy hamkor va investorlarni jalb qilish rejalarini ko‘rib chiqildi.

Ta‘kidlanganidek, keyingi yillarda geologiya-qidiruv ishlari oldingi davrga nisbatan 3 barobar oshdi. 3D seysmorazvedka, aerogeofizika, kosmogeologiya, raqamli geologiya kabi ilg‘or usullarni joriy etish boshlandi. Geologiya fanlari universiteti tashkil etilib, hozirgi

kunda 1,5 ming nafar yoshlar zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallamoqda.

Shuningdek, geologiya ishlari sohasidagi loyihalarga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qonunchilik bazasi takomillashtirildi va boshqa zarur sharoitlar yaratildi.

Buning hisobiga konlarni izlash va o‘zlashtirish bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlar soni 4 barobarga ko‘paydi. Joriy yilning o‘zida geologiya ishlariga 180 million dollar xorijiy investitsiyalar kiritildi, amalga oshirilayotgan loyihalarning umumiy qiymati esa 2 milliard dollardan oshdi.

Davlatimiz rahbari hisobotni tinglab, kelgusi yilda geologiya-qidiruv sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab berdi.

O‘ZA

YER HISOB VA KADASTR XIZMATLARINI YAXSHILASH CHORALARI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-oktabr kuni yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlarini yaxshilash masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

So‘nggi yillarda bu sohada katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, topografik o‘lchovlar uchun Kadastr agentligi maxsus samolyot va aerofotokamera, 112 ta dron bilan ta‘minlandi. Sohani raqamlashtirish uchun 6 ta axborot tizimi va ma‘lumotlar markazi ishga tushirildi.

Bularning hisobiga, o‘tgan uch yilda 96 foiz yerlarning elektron xaritasi yaratildi. 40 million gektar yer ro‘yxatga olinib, soliq bilan bog‘landi. Avval hisoblanmagan 790 mingta yangi va 520 mingta qo‘shimcha qurilma tizimga kirdi. Bular orqali byudjetga 1,1 trillion so‘mlik manba yaratildi.

Shuningdek, zaxiradagi 1,2 million gektar qishloq yerlariga kadastr qilingani hisobiga 675 ming aholi va fermerlarga 425 ming gektar yer bo‘lib berildi.

Shu bilan birga, sohada hali qilinadigan ishlar ham ko‘p. Xususan, 146 ming kilometr ichki yo‘llar va atrofidagi yerlarning hujjati yo‘q.

Suv xo‘jaligida ham shu ahvol. Suv havzalari, kanal va kollektorlar atrofidagi bo‘sh yerlarni avksion orqali aholi va tadbirkorlarga berish mumkin. Lekin bugungi kunda 827 ming gektar suv fondi yerlaridan faqat 380 ming gektarining kadastr hujjatlari bor.

Shu bois, yo‘l va suv fondi yerlari kadastrini yakunlab, ulardan foydalanishga sharoit yaratish bo‘yicha ko‘rsatma berildi. Bu orqali 1 million aholi bandligini ta‘minlash mumkinligi ta‘kidlandi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, respublikada 2,4 millionta xonadonning egalik hujjati yo‘q. Ularning kadastr hujjati qilinsa, odamlarga huquqiy, iqtisodiy

sodiy zamin bo‘ladi. Shu bois, hujjatsiz uy-joylarga egalik huquqini berish bo‘yicha qonun loyihasini yakuniga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Shuningdek, aholi uzoq yillardan buyon uy-joy sifatida foydalanib kelayotgan, lekin hujjatda qishloq xo‘jaligi yerlari bo‘lib qolayotgan 817 ming gektar yerni xatlovdan o‘tkazib, yer toifasini o‘zgartirish taklifi bildirildi.

Kadastr tizimida ish hajmi ko‘pligi ham dolzarb masala. Bu yil 1,5 millionta kadastr xizmati ko‘rsatilgan bo‘lsa, shundan 600 mingtasi kadastr yig‘ma jildi bilan bog‘liq. Tizimdagi 25 foiz xodim shu bilan band. Ularga ish yuklamasi ikki barobar ko‘p.

Bu borada Toshkent shahri va Toshkent viloyatida tajriba tariqasida xususiy kadastr muhandisi instituti joriy etildi hamda 165 ta xususiy kadastr muhandisi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Endi bu faoliyatga xususiy sektorni jalb qilish nazarda tutilmoqda. Odamlar istasa, xususiy sektorga, istasa, davlat idorasiga murojaat qilishi mumkin bo‘ladi. Buning uchun ko‘chmas mulklar yangi “UZKAD” axborot tizimiga o‘tkaziladi, 2024-yil 1-iyuldan respublikaning barcha hududlarida xususiy kadastr muhandislari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Davlatimiz rahbari kadastr xizmatlari qamrovi va sifatini oshirish, buning uchun malakali kadrlar tayyorlash, sohani ilm-fan bilan uyg‘unlashtirish va raqamlashtirishga alohida e‘tibor qaratish zarurligini ta‘kidladi.

O‘ZA



MUNOSABAT

Mamlakatdagi haqiqiy ahvolni bilmoqchi bo‘lsangiz, oddiy odamlar bilan muloqot qiling, ulardan hol-ahvol so‘rang, fikr oling, mulohazalarini eshiting. Chunki xalq eng to‘g‘ri va haqiqiy bahoni beradi. Davlatimiz rahbari Qashqadaryo viloyatiga bu galgi tashrifini dastavval aholi vakillari, oddiy odamlar bilan muloqot qilishdan, ulardan hol-ahvol so‘rashdan boshlagani boisi ham shunda.

ENG TO‘G‘RI BAHONI XALQ BERADI



Prezidentimizning el bilan birga bo‘lishi, oddiy odamlar bilan samimiy suhbat qurishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ezgu g‘oya — “Inson qadri uchun” tamoyilining hayotdagi yorqin ifodasidir. Binobarin, oilalar totuvligi,

hamjihatligi, mahallalarda aholi uchun qulay imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilishi, bularning hammasi mamlakat istiqboli va ravnaqiga xizmat qiladi.

Davomi 2-betda



BIR MAKON, BIR YO‘L

KELGUSI ASRNING BAXTI USHBU ASRDA QURILADI

TARIXIY-MADANIY RISHTALAR, UMUMIY TARAQQIYOTGA ERISHISH YO‘LIDAGI MEZONLAR



Buyuk ipak yo‘li haqida ko‘hna rivoyatlar, qutlug‘ hikoyatlar, qadimiy kitoblardan yaxshi bilamiz. Zero, uning insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hisssasi ulkan. Bu yo‘l 2000-yildan ortiq vaqt mobaynida Sharq bilan G‘arbni savdo-iqtisodiy rishtalar bilan bog‘ladi. U o‘tgan mintaqalarda yashovchi xalqlarning madaniy-ma‘naviy aloqalari mustahkamlandi. Bugunga kelib, bu yo‘lni zamonaviy asosda qaytadan tiklashga ehtiyoj ortib bormoqda. Ehtiyoj esa hamkorlik va taraqqiyot sari yetaklaydi.



boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan sa‘y-harakat hamda xalqaro loyihalardir.

Prezidentimizning “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumidagi nutqida e‘tirof etilganidek, Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashga

qaratilgan ulug‘vor g‘oya tarixan qisqa davrda ko‘plab tarafdorlariga ega bo‘ldi va xalqaro hamkorlikning yangi modeliga, umumiy taraqqiyot va farovonlikka erishish yo‘lidagi zaruriy, inklyuziv va ochiq platformaga aylandi.

Davomi 3-betda



SHARH



TEMIR YO‘L BOZOR TAMOVILLARIGA MOSLASHYAPTIMI?

Transport sohasi muhim infratuzilmaviy tarmoq sifatida jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish, aholi turmush darajasini oshirish qatorida iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash omilidir. Temir yo‘l esa iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini. Yuk va yo‘lovchi tashishning eng arzon, tezkor, xavfsiz, ekologik jihatdan toza va samarali usuli.

Shu bois, yurtimizda temir yo‘l sohasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Sohani yetakchilar qatoriga olib chiqish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar kechmoqda.

Tizimni zamonaviylashtirish, sog‘lom raqobat muhitini yaratish, xususiy sektorni keng jalb qilish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish hamda

respublikaning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida 2023-yil 10-oktabrda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi.

Davomi 4-betda



NUQTAYI NAZAR

SALOHİYATLI KADRLAR ISLOHOTLAR TAQDIRINI BELGILAYDI

Yurtimizdagi yangilanishlar, izchil islohotlar davrida ichki ishlar organlari faoliyati ham mutlaqo yangicha mazmun-mohiyat kasb etdi. Tizimni aholiga yaqinlashtirish va chinakam xalqchil tuzilma sifatida shakllantirish maqsadida amaliyotga yangicha mexanizmlar joriy qilindi. Bunda, eng avvalo, aholi bilan manzilli ishlash, fuqarolarni tashvishga solayotgan masalalarni joyida hal etish, hududlarning krimingen vaziyatiga ta‘sir ko‘rsatayotgan omillarni bartaraf etish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish orqali jinoyatchilikni jilovlashga alohida e‘tibor qaratildi.

Davomi 2-betda



AGRAR TARMOQ

LOYIHA FRANSIYANIKI, MAHSULOT O‘ZBEKISTONNIKI MEVA-SABZAVOT EKSPORTIDA YANGI YO‘NALISH



Bugun jahon bozorida yurtimizda yetishtirilgan meva-sabzavotlarga talab tobora ortmoqda. Ular hatto Yevropa bozorlarigacha yetib bordi.



Ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda O‘zbekiston 80 ta davlatga 180 xil meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilayпти. Birgina joriy yilning yanvar-iyul oylarida mamlakatimiz 1,1 million tonna meva-sabzavot eksport qilgan va bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 barobar ko‘p. Ya‘ni ushbu yo‘nalish yurtimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida asosiy o‘ringa chiqib bormoqda. Bu turdagi mahsulotlarni nafaqat yetishtirish, balki qayta ishlash, xorijga chiqarishda barcha standartlarga javob berishi borasida ham so‘nggi yillarda sezilarli tajriba to‘pladik. Natijada hozir eksportning umumiy hajmida meva-sabzavot ulushi 4,6 foizni tashkil etmoqda.

Davomi 4-betda



NUQTAYI NAZAR

SALOHİYATLI KADRLAR ISLOHOTLAR TAQDIRINI BELGILAYDI

Jamshid XOLOV, IIV akademiyasi axborot xizmati mutaxassisi, kapitan



Yangi O‘zbekistonda yangi ichki ishlar organlarini to‘la qaror toptirish yo‘lidagi islohotlar soha xodimlari, ayniqsa, rahbar kadrlar oldiga dolzarb talab va mezonlarni qo‘ymoqda. Hozirgi zamon rahbari yetuk, salohiyatli, vatanparvar va fidoyi, muvaffaqiyat sari intiluvchi, javobgarlikni zimmasiga olishga qodir, tom ma‘noda omilkor boshqaruvchi bo‘lishi shart. Akademiya magistraturasida “universal rahbar” tizimi joriy etilgani shunday kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.



Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan bayram tabrigida ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilganini alohida ta‘kidladi.

Chindan ham keyingi yillarda tizimni har jihatdan professional kadrlar bilan ta‘minlash borasida mutlaqo yangi bosqichga qadam qo‘yildi. Yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bolaligidan kasbga yo‘naltirish, yuqori malakali huquqshunos sifatida tayyorlash maqsadida ixtisoslashgan maktab-internat, idoraviy akademik litseylar tashkil qilinib, ta‘limning uzleksiz jarayoni yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi faoliyati milliy va xalqaro tajribaning ilg‘or yondashuvlari asosida tubdan takomillashtirildi.

Bugungi kunda akademiya bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli oliy ta‘lim tizimi joriy qilingan. Bakalavriat bosqichi 9 ta ixtisoslik yo‘nalishini o‘z ichiga olib, unda kursantlar modulli tizim asosida ta‘lim oladi. O‘quv jarayonlarining 60 foizi nazariya, qolgan 40 foizi amaliyotga qaratilgan bo‘lib, kursantlar birinchi kursdan boshlab mutaxassslik, yuridik, jangovar va jismoniy bilim hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirib boradi.

Ta‘lim sifatini oshirish maqsadida hududiy ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari rahbarlari ishtirokida onlayn mahorat darslari o‘tkazish, kursantlarning o‘quv tezkor-tergov guruhlar tarkibida hodisa joyiga chiqqan holda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari va hududiy bo‘linmalarida bazaviy amaliyotlar tashkil qilish, shuningdek, “Muloqot” klubi, “Final” kompleks o‘quv mashg‘ulotlari hamda sayyor sud majlislari orqali kursantlarni kasbga yo‘naltiruvchi mexanizmlar yo‘lga qo‘yilgan.

Yangi O‘zbekistonda yangi ichki ishlar organlarini to‘la qaror toptirish yo‘lidagi islohotlar soha xodimlari, ayniqsa, rahbar kadrlar oldiga dolzarb talab va mezonlarni qo‘ymoqda. Hozirgi zamon rahbari yetuk, salohiyatli, vatanparvar va fidoyi, muvaffaqiyat sari intiluvchi, javobgarlikni zimmasiga olishga qodir, tom ma‘noda omilkor boshqaruvchi bo‘lishi shart. Akademiya magistraturasida “universal rahbar” tizimi joriy etilgani shunday kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu haqda to‘xtalib, har bir xodim navbatdagi unvonni olishi uchun majburiy tarzda kasbiy malakasini oshirishi, rahbarlik lavozimiga tayinlanishi uchun Ichki ishlar vazirligi akademiyasining boshqaruv magistraturasida tahsil olishi

belgilangani ijobiy samara berayotganini alohida qayd etdi.

Shu o‘rinda yana bir jihatni aytish lozim. Tizimdagi yangilanishlar natijasida jinoyatchilikni ilmiy jihatdan tadqiq etish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Mazkur yo‘nalishda akademiya professor-o‘qituvchilari tomonidan respublikamizning barcha hududlari, ayniqsa, jinoyatlar salmog‘i yuqori mahallalarda tizimli ishlar olib borilmoqda. Bunda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablari, ularga imkon bergan shart-sharoitlar, kriminogen vaziyatga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan omillar ilmiy tahlil qilinib, jinoyatchilikni jilovlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilmoqda hamda amaliyotga keng tatbiq etilmoqda.

Joriy o‘quv yilidan mazkur faoliyatni takomillashtirish maqsadida yangi tizimga o‘tildi. Unga ko‘ra, akademiyaning ixtisoslik va yuridik kafedralari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahriga biriktirilib, hududlarning kriminogen holatini o‘rganish orqali huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha ichki ishlar organlariga metodik yordam ko‘rsatish, shuningdek, ta‘lim muassasasini tamomlagan yosh xodimlar faoliyatini monitoring qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimiz mazkur yo‘nalishdagi ishlarining mantiqiy davomi sifatida ushbu yildan “mahalla yettilligi” tizimi joriy qilingani, profilaktika inspektori ana shu tizimning eng faol a‘zosi sifatida aholi muammolarini hal etishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirishiga ham e‘tibor qaratadi. Mazkur faoliyatni ilmiy-metodik jihatdan ta‘minlash esa mahallalarni jinoyatdan xoli hududga aylantirishga xizmat qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, davlatimiz rahbari tabrigida e‘tirof etilgan yangilanishlar, dolzarb ahamiyatga ega vazifalar tizimining barcha xodimlari, ayniqsa, akademiya jamoasiga ulkan mas‘uliyat yuklaydi. Chunki hamma sohalarda bo‘lgani kabi ichki ishlar tizimida ham yuksak malakali, zamonaviy fikrlaydigan, kasbga, Vatanimiz va xalqimizga sodiq kadrlar islohotlar taqdirini belgilab beradi. Buning uchun har birimiz, avvalo, shaxsiy fazilatlarimiz bilan yosh avlodga o‘rnak bo‘lishimiz kerak. Yangi O‘zbekistonda yangi ichki ishlar organlarini to‘la qaror toptirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarimiz ana shu mezonlarga bog‘liq.

Siyosat

YANGI O‘ZBEKISTON



MUNOSABAT

ENG TO‘G‘RI BAHONI XALQ BERADI

Shahnoza XOLMAHAMATOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari Qashqadaryoda o‘tkazgan yig‘ilishda ham buni alohida ta‘kidladi. Mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va kelajagi uchun yangi korxonalar, yangi bozorlar, investitsiya, ish o‘rinlari, katta-katta tushumlar kerakligi aytili. Shu nuqtayi nazardan, yig‘ilishda asosiy e‘tibor sanoat, turizm, qishloq xo‘jaligi va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratildi.

Viloyatda yilning to‘rt mavsumida ham sayyohlarni jalb qilish salohiyati bor. Ammo u hozir Shahrisabz shahri va tog‘li tumanlar bilan chegaralangan. Taqqoslash uchun, yil boshidan buyon Qashqadaryoga 180 ming xorijlik sayyoh kelgan, qo‘shni Samarqand va Buxoroda esa bu ko‘rsatkich 3,5 milliondan ortiq. Demak, sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina.

Davlatimiz rahbari qulay infratuzilma yaratib, turistlarni ko‘paytirish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tdi. Xususan, germaniyalik hamkorlar bilan Shahrisabz tumanidagi 3 ta turizm mahallasi master-rejasi tayyorlangan. Bunda 450 million dollar qo‘shimcha investitsiya va yiliga 1 million sayyoh jalb etadigan infratuzilma yaratiladi. Buning hisobidan Shahrisabzning o‘zida yiliga qo‘shimcha 500 milliard so‘m tushum kutilyapti, 5 mingga to‘liq bo‘ladi.

Buning uchun transport tizimini ham rivojlantirish kerak. Nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholining Qashqadaryoga avtotransportda kelishini qulaylashtirish

Davlatimiz rahbari qulay infratuzilma yaratib, turistlarni ko‘paytirish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tdi. Xususan, germaniyalik hamkorlar bilan Shahrisabz tumanidagi 3 ta turizm mahallasi master-rejasi tayyorlangan. Bunda 450 million dollar qo‘shimcha investitsiya va yiliga 1 million sayyoh jalb etadigan infratuzilma yaratiladi. Buning hisobidan Shahrisabzning o‘zida yiliga qo‘shimcha 500 milliard so‘m tushum kutilyapti, 5 mingga to‘liq bo‘ladi.

zarurati bor. Shu maqsadda “Taxtaqoracha” dovonidan o‘tish talablarini yengillashtirish ko‘zda tutilmoqda. Kelgusi yilda dovonda yangi tonnel va yo‘l qurish loyihasi boshlanadi. Samarqand bilan Shahrisabzni bog‘lovchi 30 kilometr yo‘l hamda G‘uzor — Buxoro yo‘lining 100 kilometr qismi ta‘mirlanadi. Umuman, kelgusi yilda xorijlik sayyohlarni 500 mingtaga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining oxirgi yillariga e‘tibor qaratilsa, kichik va o‘rta biznes vakillari, tadbirkorlik qilaman, degan inson borki, har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani ko‘zga tashlanadi. Bu qo‘llab-quvvatlov ortidan esa barcha sohalarda o‘shish kuzatilyapti. Qashqadaryo viloyatida ham tadbirkorlar uchun sharoitlar yetarli. Davlatimiz rahbari ularga bo‘lgan ishonchini yana bir bor ko‘rsatdi — kitoblik tadbirkorning IT klaster va universitet ochish tashabbusini ma‘qulladi.

Tasavvur qiling, tadbirkorni Prezidentning o‘zi qo‘llab-quvvatlab tursa, imkoniyat va imtiyoz bersa, dardini, fikrini tinglasa, bundan ortiq baxt bormi? Yoki davlat rahbari oddiygina xonadonga kirib, ulardan hol-ahvol so‘rasa, bu inson qadrlarining ulug‘lanishi emasmi? Zotan, yurtimizda kechayotgan hayotiy islohotlarning negizida yangi O‘zbekistonda barpo qilibdek ulug‘ maqsadlar turgan ekan, uning pilapoyasi oddiy oilalardan, mahallalardan, farzandlarimizning yetuk va barka-

mol bo‘lib ulg‘ayishidan boshlanishini unutmasligimiz kerak.

Prezidentimiz viloyatga tashrifi davomida safar dasturida nazarda tutilmagan manzillar bilan ham tanishdi. Xususan, Qarshi tumani markazi — Beshkent shahridagi 12-maktab rejalashtirilgan holda borib ko‘rildi. Bu yerda ayni paytda 1400 ga yaqin o‘g‘il-qiz o‘qimoqda. Ular yuzdan ziyod malakali pedagoglar ta‘lim bermoqda. Maktab o‘tgan yili kapital ta‘mirlangan.

Ayni kunlarda yurtimizda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik va ko‘chat ekish avjida. Davlatimiz rahbari maktab misolida shu boradagi ishlarni ham ko‘zdan kechirdi. Mutasaddilarga ijtimoiy muassasalarni issiqlik bilan ta‘minlash, energiyatejamkor texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Maktablarning qurilish standartlarini zamonaviylashtirish, bunda infratuzilma bilan ta‘minlanganlik, funksionallik va energiya samaradorligi bilan bog‘liq barcha mezonlarni nazarda tutish zarurligi ta‘kidlandi. “Yashil makon” loyihasi doirasida maktablar atrofidan ko‘chat ekish ishlariga ham e‘tibor qaratildi.

Bugun yurtimizda ta‘lim tizimiga bu qadar katta e‘tibor berilayotgani bejiz emas. Zero, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta‘lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ta‘lim va tarbiyaning asosi, poydevori, bu — maktab. Prezidentimiz ta‘bir bilan aytganda, “Maktab bor joyda madaniyat bo‘ladi. Pedagoglar boshqalarga har jihatdan o‘rnak. Maktab atrofi obod bo‘lib, mavsumiy gullar yashnab tursa, yoshlarga ham tarbiya, ham da‘vat bo‘ladi”.



Bir so‘z bilan aytganda, davlatimiz rahbarining Qashqadaryo viloyatiga tashrifi tom ma‘noda tarixiy voqea bo‘ladi. Voha ahlining kayfiyatini ko‘tardi, ularning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamladi. Belgilab olingan vazifalar esa viloyatning yanada rivojlanishi, aholi turmushi farovonligiga xizmat qiladi.



MULOHAZA

AVTOMOBILDAN SAQLANING yoxud hech narsa inson hayotidan ustun emas

Abror QURBONOV, ekspert

Prezidentimiz raisligida yaqinda bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida yo‘llarda harakat xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish bilan bog‘liq dolzarb mavzu ham kun tartibiga ko‘tarildi. Transport vaziri va boshqa mutasaddilarga jamoat transportini rivojlantirish, svetoforlar va yo‘l chiziqlarini o‘rnatish, tirbandlikning oldini olish, poytaxt ko‘chalari va hududlardagi yo‘llarni tartibga solish bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rish topshirildi. 2024-yil bu borada jiddiy o‘zgarishlar yili bo‘lishi yuzasidan vazifa qo‘yildi.

Darhaqiqat, yo‘llarda harakat yil sayin tig‘izlashib borayotgan bugungi kunda avtohalokatlarining oldini olish, xavfsizlikni ta‘minlash masalasi tobora dolzarb tus olmoqda.

Buni quyidagi raqamlar ham isbotlaydi: e‘tibor bering, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida 9 million martadan ortiq yo‘l harakati qoidasi buzilishi qayd etilgan. Jumladan, 8 millionga yaqin qo‘pol qoidabuzarliklar, 26 mingga yaqin mast holatda avtomobil boshqarish va 161 mingdan ziyod piyodalar qoidabuzarligi kuzatilgan. Oqibatda shu davrda yo‘l-transport hodisasi natijasida 1415 kishi halok bo‘lgan, yana 5448 fuqaro turli darajadagi tan jarohati olgan.

Tahillarga ko‘ra, avariylarning 55 foizi haydovchilar aybi bilan sodir etilgan. Bunda ularning qoidalarini mensimaslik holati 45 foizni, tajribasizligi esa 10 foizni tashkil etadi. Ko‘rib turibisizki, bironing qo‘pol xatosi yoki qoidani mensimay harakatlantirishi ortidan kimdir og‘ir jarohatlanadi, kimdir bir umrga nogiron bo‘lib qoladi yoxud bir oila o‘zining boquvchisidan, farzandlar otanasidan, ota-ona farzandidan judo bo‘ladi. Yo‘llarimizda mashinada tugul, piyodalar harakatlantirish ham tobora xavfli bo‘lib bormoqda. Ko‘p hollarda piyodalarning yo‘llarni kesib o‘tishda qiyalayotgani, haydovchilar esa ularga yo‘l bermasligini ko‘ramiz.

Shu o‘rinda mulohazali bir fikrni aytib o‘tsak. Inson o‘limi bilan bog‘liq holatlarda qonunchilikimizda 7 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilangan bo‘lsa-da, bu norma amalda har doim ham ishlmaydi. Joriy modda bo‘yicha sud qarorlarida yengillashtirilgan tartibda hukm chiqarilish holatlari ko‘p. Bu esa avtohalokatlar yana va yana sodir bo‘lishiga turki bo‘ladi. Haydovchi jazo yengillashtirilgan tartibda hukm chiqarilishiga ishonadi. Shu bois, piyodalarning yo‘ldan o‘tish qismida yo‘l bermaganlik uchun jarimalar miqdorini maksimal darajada ko‘paytirish, inson o‘limi bilan bog‘liq avtohalokatlarni sodir etganlik uchun jazoning muqarrar va qat‘iy tartibda (7 yillik hukm) amalga oshirishini ta‘minlash lozim.

Afsuski, bugun qonunlarni mensimay, odamlar hayotiga xavf solgan holda yo‘l qoidalarini buzib harakatlantirish va uni vidoaga olib tarqatish holatlari ham ko‘paydi. Ular qoidalarini buzgani bilan faxrlanadi. Yana shunday toifadagi “erkatoylar” borki, surbetlaracha “Jarimangni yoz, to‘lab ko‘yam”, deya maqtanib ham qo‘yadi. Bundaylarni na jarima, na kamera va na svetofor, hatto biron kishini urib yuborish ehtimoli ham to‘xtata olmayapti.

Oqibatda barchamiz yo‘llarda avtomobillarga “ortiqcha xavf manbai” sifatida qarashga majbur bo‘laypmiz. Bolamizni mak-



tabga yoki ko‘chaga chiqarishda, albatta, “Yo‘ldan ehtiyot bo‘lib o‘t”, “Mashinalardan ehtiyot bo‘l”, deb tayinlaymiz. Bu birinchi navbatdagi vazifamizga aylanib ulgurd. Demak, bu yo‘llarning xavfsiz emasligi, yo‘llardagi ko‘ngilsizliklar kun sayin ortib borayotganini odatiy holat sifatida qabul qilishni boshlaganimizdan dalolat beradi.

Har birimiz piyoda, yo‘lovchi yoki haydovchi sifatida yo‘l harakati ishtirokchilari-miz. Har kim yo‘lda xavfsiz harakatlantirishni xohlaydi va shuning uchun yo‘l harakati qoidalarini joriy etilgan. Qoidabuzarga jazo tayinlanib, shu yo‘l bilan tartib saqlanishi belgilangan. Qoidani buzdimi, albatta, jazo muqarrar bo‘lishi kerak.

Yo‘llarda sodir bo‘layotgan avtohalokatlar, oqibatda yosh bolalar o‘limining ko‘paygani barchamizni tashvishga soladi. Misol uchun, Namanganning Kosonsoyida mashina tagida yosh bolaning majalanganligi yoki Toshkentning Abdulla Qodiriy ko‘chasida 12 yoshli qizning mashina tagida qolib vafot etgani... Bularni eshitishning o‘zi odamni larzaga soladi.



Bugungi kunda O‘zbekiston bo‘ylab 11 mingga yaqin piyodalar o‘tish joyi mavjud. Biroq ularning atigi 1834 tasida piyodalar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida svetofor yoki boshqa yo‘l belgilari o‘rnatilgan. 2021-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda nazoratsiz piyodalar o‘tish joylarida 2784 ta baxtsiz hodisa qayd etilgan bo‘lib, ulardan 1007 tasi qorong‘ida sodir bo‘lgan. Shu sababli respublikamiz bo‘ylab piyodalar boshqaradigan svetoforlarni o‘rnatish muhim va bu “yo‘l — piyoda uchun” tamoyilini joriy etishga xizmat qiladi.

Statistikaga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2021-yil davomida haydovchilarning piyodalarga yo‘l bermasdan harakatlanganini uchun qo‘llanilgan ma‘muriy qoidabuzarliklar soni 101 ming 796 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 142 ming 967 tani, 2023-yilning 8 oyida esa 90 ming 211 tani tashkil qilgan. Bunday ma‘lumotlardan odam dahshatga tushadi. Oqibatlar bilan emas, sabablar bilan kurashishimiz kerak. Har bir holatni o‘rganib, aniq tahlillar qilish zarur.

Bugungi kunda O‘zbekiston bo‘ylab 11 mingga yaqin piyodalar o‘tish joyi mavjud. Biroq ularning atigi 1834 tasida piyodalar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida svetofor yoki boshqa yo‘l belgilari o‘rnatilgan. 2021-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda nazoratsiz piyodalar o‘tish joylarida 2784 ta baxtsiz hodisa qayd etilgan bo‘lib, ulardan 1007 tasi qorong‘ida sodir bo‘lgan. Shu sababli respublikamiz bo‘ylab piyodalar boshqaradigan svetoforlarni o‘rnatish muhim va bu “yo‘l — piyoda uchun” tamoyilini joriy etishga xizmat qiladi.

Eng yomon jihati shundaki, biz yuz berishi mumkin bo‘lgan hodisalarining oldini olishga harakat qilmayapmiz. Faqatgina voqea sodir bo‘lib, shov-shuv ko‘tarilishiga uning sabablarini o‘rganib, yechim topishga ko‘nikib qoldik.

Buning natijasida piyodalar o‘tish joylarida svetoforlar odatda o‘lim bilan yakunlangan baxtsiz hodisalardan keyin paydo bo‘lishi odatga aylandi. Misol uchun, yuqoridagi aytilganmi, Abdulla Qodiriy ko‘chasidagi avtohalokat va uning natijasida yosh bolaning vafot etishi ortidan ushbu piyodalar o‘tish yo‘lagi svetofor bilan jihozlandi. Yana bir misol, poytaxtimizdagi Maxtumquli ko‘chasida piyodalar o‘tish yo‘lagida bir ayol mashina urib ketishi oqibatida vafot et-

gach, o‘sha joyga ham ko‘p o‘tmay, piyodalar boshqaradigan svetofor o‘rnatildi.

Tabiatimiz shunday, qachonki qizil belgini qo‘yasiz, keyin to‘xtaymiz. Shu bois, maktab atrofiga, piyodalar o‘tish yo‘laklariga, albatta, qo‘lda boshqariladigan svetoforlar o‘rnatilishi kerak, deb hisoblaymiz. O‘z navbatida, haydovchi va piyoda o‘rtasidagi munosabatni shakllantirish va harakat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan takliflarimizni bildirib o‘tamiz.

Birinchidan, yo‘l harakati ishtirokchilarining qoidalariga amal qilish madaniyatini oshirish kerak. Insonni qadrlashni o‘rganmasdan turib, bunga erishib bo‘lmaydi. Buni haydovchi va piyoda o‘rtasida shakllantirish lozim. Shundaygina o‘zaro hurmat va qonunlarga itoat ruhi paydo bo‘ladi.

Ikkinchidan, inson o‘limi bilan bog‘liq holatlarda qonunchiligimizda 7 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilangan bo‘lsa-da, bu norma ishlmaydi. Bu esa avtohalokatlar yana va yana sodir bo‘lishiga turki bo‘ladi.

Demak, piyodalarning yo‘ldan o‘tish qismida yo‘l bermaganlik uchun jarimalar miqdorini maksimal darajada ko‘paytirish, inson o‘limi bilan bog‘liq avtohalokatlarni sodir etganlik uchun jazo muqarrarligini kuchaytirish lozim.

Uchinchidan, avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta‘minlash tizimini tubdan isloh qilish zarur. Piyodalar o‘tish yo‘llarini to‘liq avtomatlashtirish hamda qo‘lda boshqariladigan svetoforlarni o‘rnatish kerak. Har qanday mablag‘ inson hayotidan qimmatli emas.

To‘rtinchidan, har haftada eng ko‘p qoidabuzarlikni amalga oshirgan haydovchilar ro‘yxatini viloyatlar kesimida e‘lon qilib borish tizimini joriy qilish lozim. Kim qanday qoida buzganini boshqalar ko‘radigan tizim kerakka o‘xshaydi.

Qadimda qoidabuzarlar xalq oldiga olib chiqib ko‘rsatilgan. Ushbu tizim bugun ham ayrim davlatlarda amal qiladi. Bu, o‘z navbatida, qoidabuzarliklar soni kamayishiga olib keladi.

Xulosa o‘rinda aytish kerakki, siz muhim hisoblamagan yo‘l madaniyati hayotimizning achchiq xotimasi bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, har birimiz o‘z majburiyatimizni to‘la his etgan holda, yo‘llarda madaniyatli yo‘lovchi va haydovchi sifatida harakatlanaylik!



BIR MAKON, BIR YO‘L

KELGUSI ASRNING BAXTI

USHBU ASRDA QURILADI

TARIXIY-MADANIY RISHTALAR, UMUMIY TARAQQIYOTGA ERISHISH YO‘LIDAGI MEZONLAR



Abdurauf QORJOVOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz 2017 va 2019-yillarda Xitoyga davlat tashriflari doirasida “Bir makon, bir yo‘l”ning birinchi va ikkinchi xalqaro forumlarida ishtirok etdi. Ayni kunga kelib, bu dastur Osiyo, Yevropa va Afrikadagi 100 dan ortiq mamlakatni qamrab olgan 2 ming 600 dan ziyod loyi-hani o‘z ichiga olgan.

AGAR BIR YURTNI BILMOQCHI BO‘LSAK...

Kishilar bir-birini yaxshi anglamog‘i uchun bir pud tuzni baham ko‘rish i kerak, degan naql bor. Buni hayotiy tajriba ham tasdiqlab keladi. Agar bir yurtni, mamlakatni bilmoqchi bo‘lsak-chi? Unda qanday tamoyillarga amal qilish zarur bo‘ladi? Tabiiyki, bu borada har bir mam-lakatning o‘ziga xos talab-tamoyillari bor.

Masalan, Chin yurtida buning uchun Buyuk Xitoy devori, Imperatorlar saroyi, Siandagi yer osti yodgorliklarini ko‘rish va albatta, Pekin o‘rdagidan totish zarur, degan fikrni bildirishadi. Bu mamlakatning boshqa joylarida bo‘lsangiz-u, lekin ana shu uch qadimiy maskanni ko‘rishu o‘ziga xos taomini totish nasib etmasa, demakki, siz hali Xitoyda bo‘lmabsiz, deyishadi. Bu fikrlarga asos shuki, ular Xitoy tarixining ko‘zgusi va jahon madaniyatining noyob namunalarini sirasiga kiradi. Kaminaga ularning hammasida bo‘lish nasib etgan va hozirgi hikoya ham ana shu taassurot-larning jajji bir surati, keyingi paytda jadal rivojlanayotgan o‘zaro munosabatlarning muayyan tahlili hisoblanadi.

Buyuk Xitoy devorini xitoyliklar “Vinli Chongman” deb ataydi. O‘zbekchaga o‘girilganda, 10 ming il uzunlikdagi devor, degan ma‘noni beradi. Tarixiy man-balarga qaraganda, uning dastlabki qismi miloddan avvalgi IV-III asrlarda yovdan muhofaza vositasi sifatida qurilgan va 200-yil davomida 500 kilometr ga uzaytirilgan. Umuman olganda, uni qurish va mustahkamlash ishlari ikki ming yil mo-baynida olib borilgan, eng qizg‘in payti XIV-XV asrlarga to‘g‘ri keladi.

Ulug‘ shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida bu mudofaa inshooti Saddi Chin devori sifatida tilga olingan. Shu dalilning o‘ziyoq uning o‘sha davrlarda Mag‘ribu Mashriqqa mashhur bo‘lganidan guvohlik beradi.

Pekin yaqinidagi Szyuyugan maskani-dan to Lyaoudun ko‘rfaziga qadar cho‘zilgan qal’a va qo‘rg‘onlarni qamrab olgan devor-niing uzunligi ko‘tarilish joylari va tarmoqlari bilan qo‘shib hisoblaganda 5 ming kilo-metrdan ortiq bo‘lgan. Ba’zi manbalarda uning umumiy masofasi 7 ming chaqirimga yaqinligi haqida ham so‘z boradi.

Bu mudofaa inshooti o‘z davrining barcha harbiy talablarini hisobga olgan holda bunyod etilgan. Uning balandligi o‘rtacha 6,6 metr, shinak devorlari bilan 8-10 metrni tashkil etgan, kengligi 6,5 metrdan iborat bo‘lgan. Qurilish ashyolari sifatida tosh va g‘ishtdan foydalanilib, ichi tuproq bilan to‘ldirilgan. Zaruratga qarab, har 100-150 metrdan soqchilar uchun to‘rtburchakli burjlar, har 10 kilometrdan kuzatish va xabar berish uchun minora-lar, tog‘lardagi muhim o‘tish joylarida mustahkam qo‘rg‘onlar bo‘lgan. Biroq yillar suroni va davrlar to‘foni uning ko‘p qismini vayron qilgan. Bu maskanlar ayni davrda millionlab sayyoh tashrif buyura-digan nodir inshootlarga aylangan.

Chin yurtida qadim-qadimdan har bir son yoki raqamning o‘z mohiyati, inson va jamiyat hayotida tutadigan o‘rni bor, degan rumumga amal qilib kelingan. Xu-susan, 9 raqami eng yuqori mavqega ega bo‘lgan. Chunki u o‘ziga qadar bo‘lgan sonlardagi barcha xususiyatlarni mujas-sam etgan, undan yuqori raqam Yarat-ganning o‘ziga daxldor, deb bilishgan.

Masalan, Osmon hukmdori 10 mingta xonaga ega bo‘lishi shart ekan. O‘zini “Osmon o‘g‘li” deb e‘lon qilgan imperator-lar 10 ming xonaga ega inshoot qurishga, o‘nta tugmali yoki shuncha ajdar rasmi tushirilgan libos kiyishga haqli bo‘lmagan. Shu bois, Pekin shahridagi Tyananmen maydoni shimolida joylashgan, bahaybat devorlar bilan o‘ralgan Imperator saroyi ham 9 ming 999 xonadan iborat. Bu yerda to‘qizta darvoza bo‘lgan, ularga solingan naqshinkor belgilarni eniga va bo‘yiga sanasangiz to‘qiztadan osh-maydi. Shuningdek, ko‘hna davrlarda Xitoy to‘qizta viloyatdan iborat bo‘lgan.

Imperator saroyi qurilishi 1420-yilda boshlangan va unda besh asr mobay-nida Min va Sin sulolalarining 24 impera-tori yashab, hukmronlik qilgan. Bugungi kunda u UNESCOning Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Mutaxassis olimlar mamlakatda 9 raqami bilan bog‘liq yana ko‘plab qadimiy rasm-rusumlar haqida hikoya qiladi. Le-kin biz ularni tinglar ekanmiz, ulug‘ aj-dodlarimiz Sohibqiron Amir Temurning 9-aprelda, she‘riyat sultoni Mir Alisher Navoiyning 9-fevralda tavallud topgani xayolimizdan ketmadi. Go‘yoki bunda ham biz anglab yetmagan dunyoviy hik-mat, o‘ziga xos ma’no-mohiyat borday tuyulaverdi.

Pekinga borgandan keyin u yerning o‘rdagini tatib ko‘rish joiz, albatta. Uning muxtasar tarixi shuki, qadim zamonlarda poytaxtdan chet hududlarga kemalarda



don-dun jo‘natilar yoki keltirilgan ekan. Kema tirqishlaridan tushib qolgan ozuqalarni yegan o‘rdaklar tez yetiluvchan, juda xushta‘m bo‘lgani bois, dovrug‘i chor-atrofga taralgan, uni tatib ko‘rish odam-larning orzu-niyatiga aylangan.

Ayni kunlarda bu taom Xitoyning o‘zida va dunyoning ko‘plab joylarida pishirilsa-da, Pekindagi uning nomi bi-lan ataladigan qadimiy restoranda tay-yorlanganchalik ma‘lumta mashhur emas. Bu yerda o‘rdak go‘shiga qand uni bilan ishlov beriladi, tashqi tomoni tandirda qovrilib, ichki qismi qozonda qaynatiladi. O‘rdakni dasturxonga tortish jarayoni ham oshpazlar tomonidan katta mahora-t bilan bajariladi. Oltin-shokolad rang kasb etgan taom shunday bo‘lakkarga bo‘lib qo‘yiladiki, albatta, uning har birida go‘sh-ti ham, suygai ham teng bo‘ladi. Ular sous va ko‘katlar bilan xamir qotir-maga o‘rab tanovul qilinadi.

Sian — Buyuk ipak yo‘liga doya-lilik qilgan ko‘hna shahar. Sianliklar o‘z ota-bobolarining davlatchiilik tarixiga qo‘shgan hissasi, qoldirgan no-dir madaniy merosidan haqli ravishda faxrlanadi. Fikrimizga ikki dalil: birinchi-dan, eramizdan oldingi 202-yilga qadar bo‘lakkarga bo‘linib yotgan Xitoy hudud-lari birlashtirilib, yagona davlatga asos solinganida Sian ana shu yurning poy-taxti bo‘lgan. Ikkinchidan, bu yerdagi yer osti obidalarini hozirgi kunda ham har qanday kishini hayratga soladi.



Ulardan biri — terrakot haykallar. 1974-yili dehqonlar Shansi viloyatidagi Lishan tog‘ida quduq qazir ekan, kutil-maganda loydan ishlangan haykallarni topib oldi. Shu tariqa jahonga mashhur yer osti obidalarini kashf qilindi.

Bunday qo‘rg‘onlar o‘sha davr jami-yatida mavjud lavozimlarga mos ra-vishda barpo etila borib, imperator saroyi bilan yakun topgan. Aslida, bunday ulkan obidani barpo etish nima uchun zarur bo‘lgan, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

— Eng avvalo, bu o‘sha paytlari hunar-mandlik, san‘at va madaniyat nechog‘liq gurkraganini namoyon etadi, — deydi ekspert Sun Guanji. — Boshqa jihatdan,

o‘zimizning Surxondaryo va boshqa vilo-yatlarning ko‘hna maskanlarida topilgan budda ibodatxonalar yodga tushadi. Ma-salan, Qoratepa va Dalvarzintepa yod-gorliklari ham eramizdan oldingi to‘rtinchi asrlarda qurilgan, ular ham g‘orlarda joylashgani, haykalchalar, boshqa ilohiy tasvirlar o‘xshashligi, ganch o‘ymakorligi unumli ishlatilgani bilan bir-birini aynan takrorlaydi. Ana shu jihatlarning o‘ziyoq o‘sha davrda ham Chin eli bilan o‘zaro aloqalar mavjud bo‘lganidan dalolat be-radi.

Xususan, miloddan avvalgi II asr-dan boshlab Xitoy va Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy hududlari bilan savdo va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Farg‘ona, So‘g‘d va Baqtriya ipakchilik kirib keldi. Karvon yo‘li rivojlanib borgan sari savdo-sotiq va madaniy rishtalar yanada mustahkamlandi. Kushonlar va efitallitlar davriga kelib (I-VI asrlar) Marka-ziy Osiyo orqali o‘tuvchi ipak yo‘li tarmoq-lari nazoratini mahalliy so‘g‘diy aholi qo‘lga oladi.

— Kushonlar davrida o‘rnatilgan barqarorlik buddizmning Tarim daryosi (Tarim — XXRdagi Sinszyan Uyg‘ur muxtor tumani ichki daryo tizimining bosh o‘qi bo‘lgan yirik daryo) o‘lkasiga, u yerdan Xitoyga, Koreya yarim oroliga va Yaponiyaga ko‘chib o‘tishiga imkon berdi. Buddizm ipak yo‘lidagi hayot va san‘atning ko‘plab jihatlariga ulkan ta’sir ko‘rsatdi, — deb yozadi ingliz tarixchisi Syuzen Uittild 2018-yilda chop etilgan “Ipak, qullar va stupalar. Ipak yo‘lining moddiy madaniyati” kitobida. — Marka-ziy Osiyo faqat xomashyo manbasi bo‘lmagan, bu yerda moddiy madani-yatning ajoyib namunalarini ishlab chiqa-rilgan. Misol uchun, Baqtriya oltinini va

Oltinchi asrda Markaziy Osiyoda bo‘lgan sayyoh Si Yu Chining esda-liliklarida xitoyliklarning qadimiy “Tan shu” kitobida ham bu aloqalar qanday tarzda yo‘lga qo‘yilganiga doir ko‘plab misollar keltiriladi.

Yettinchi asrga kelib esa Samarqand Sharq musiqa san‘ati markaziga aylan-gani, ud, arfa, nay, fleyta, doira kabi asbob-lar shu yerda yaratilib, samarqandlik mu-siqachi va xonandalar Xitoy imperatorlari saroyida iste’dodlarini namoyish etgan, ularga o‘z san‘ati sirlarini o‘rgatgan. Umu-man olganda, Xitoy xalqlarining musiqa san‘ati va asboblari shakllanishida so‘g‘d musiqiy an‘anasining ta’siri katta bo‘lgan.

Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab ko‘plab kar-vonsaroylar, shaharlar barpo etildi. Yur-timiz bu yo‘lining o‘rtasida joylashgani sa-babli savdogarlar Xorazm, Samarqand, Termiz va boshqa hududlarda mollarini sotib, mahalliy mahsulotlarni xarid qilar edi. O‘rta asrlar O‘rta Osiyo bozorlarida chetdan keltirilgan ko‘plab mahsulotlar mavjud ediki, hozirgi kunda ipak yo‘li ustidagi ko‘hna shaharlar va manzil-gohlardagi arxeologik qazishmalar nati-jasida topilayotgan topilmalar shundan shohidlik beradi.

YANGI TASHABBUS VA LOYIHALAR

O‘tgan yili avgust oyida davlatimiz rah-bari g‘oyasi va tashabbusi bilan Samar-qandda “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turizm markazi ish boshladi. Uning tarkibida 8 ta zamonaviy mehmonxona, Kongress xoll, “Boqiy shahar” majmuasi, amfiteatr va ko‘plab boshqa inshootlar bor.

Prezidentimiz markazning ochilish marosimida bunday fikrlarni bildirgan edi:



uning Koreya yarim orolidagi sivilizatsiya — tamaddunga ko‘rsatgan ta’sirini olaylik. Yoki Hindikushdan qazib olingan lojuvardni eslaylik, u ipak yo‘li yuzaga kelishidan ancha oldin Shimoliy Afrika-ga eksport qilingan va butun ipak yo‘li yo‘nalishi davomida, oradan ancha vaqt o‘tgandan so‘ng Yevropada ham badiiy naqsh berishda ishlatilgan.

“Ushbu yangi ko‘rkam majmuaga “Buyuk ipak yo‘li” deb nom berganimiz zamidira chuqur ma’no bor. Asrlar davomida Xi-toyning qadimiy Sian shahridan bosh-lanib, dunyoning ko‘plab mamlakatlari hududidan o‘tgan va ko‘hna Rimga qadar yetib borgan bu ulkan savdo yo‘li jahon xalqlari o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy muloqot vositasi bo‘lib kelgan.



Azim Samarqand esa Buyuk ipak yo‘lining asosiy manzillaridan biri bo‘lganini ham-mamiz yaxshi bilamiz.

Shuni hisobga olib, biz yangi markaz-dagi binolarda Buyuk ipak yo‘li davriga oid tarixiy manzaralarni ham aks ettir-dik. Masalan, “Boqiy shahar” majmuasi bezaklarida qadimiy Afrosiyob devor-larida saqlanib qolgan So‘g‘d davlati hukmdorining Koreya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlar elchilarini qabul qilish marosimi tasvirlaridan foydalandik.

O‘ylaymanki, ana shu davlatlarning elchilari va xorijiy sayyohlar ham ushbu tasvirlar bilan tanishib, o‘z yurtlari tarixini shu yerda ko‘rgandek bo‘ladi. Biz Buyuk ipak yo‘li orqali rivojlangan ana shu tarixiy an‘analarni, bugun taraqqiyot, madani-yat, do‘stlik va hamkorlik yo‘li sifatida qayta tiklashga intilmoqdamiz”.

Bu so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Xitoy hamkorligining rivojlanib borishida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Keyingi yillarda Xitoy investitsiyasi hajmi besh barobar, qo‘shma korxonalar soni uch barobar ko‘paydi. Joriy yil boshidan buyon o‘zaro savdo hajmi 36 foiz oshdi. Yil yakunigacha ushbu ko‘rsatkich 10 milliard dollardan oshishi kutilayotgan bo‘lsa, tovar ayirboshlash yaqin besh yil-da 20 milliard dollarga yetkazilishi uchun barcha asoslar bor. Binobarin, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘lini qurish loyihasi bo‘yicha ishlar boshlab yuborilgan.

Madaniyat, ta’lim va turizm sohalari-da qizg‘in hamkorlik yo‘liga o‘tildi. Yaqinda Xanchjouddagi Ipak milliy muzeyida O‘zbekistonning taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Pekindagi Gugun saroyi muzeyida “Makon va yo‘l” tashabbusi doirasidagi arxeologik hamkorlik ko‘rgazmasida tarixiy mero-simiz ekspozitsiyasi tashkil etildi.

Yaqinda Samarqand va Sian o‘rtasida madaniy va turizm sohalaridagi hamkor-likni rivojlantirishga doir uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

— Samarqand bilan hamkorlikni rivoj-lantirish maqsadida memorandum imzo-lab, Buyuk ipak yo‘lidagi ikki qadimiy sha-har o‘rtasidagi aloqalarni qayta tiklaymiz, — dedi Sian shahri madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Zuo Dong. — Qadimiy Samarqandning dunyo hamjamiyatidagi o‘rni barchaga ayon. Bizning Sian shahri ham uch ming yil-lik tarixiga ega. Buyuk ipak yo‘li Siandan boshlanadi. Uning madaniyati, tarixi ham juda boy. Jahon madaniy merosidan joy olgan oltita tarixiy maskan joylashgan. Taqdimotimiz davomida buni yanada yorqinroq tushuntirishga harakat qildik. O‘ylaymanki, ushbu tadbirimiz Sian va Samarqand o‘rtasida turizm, madaniyat sohalaridagi hamkorligimizning yangi bosqichini boshlab beradi.

Prezidentimiz “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumidagi nutqida tabiiy resurslar va atrof-muhitga nis-batan ehtiyohtkorlik bilan munosabatda bo‘lish bo‘yicha an‘anaviy qadriyatlarini qaror toptirmasdan turib, “yashil” taraqqi-yotga o‘tish mumkin emasligini bildirar ekan, mazkur tashabbus doirasida “ya-shil” madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha global dasturni ishga tushirishni va unda etnoekologik festivallar, forumlar, mam-lakatlarimizdagi taniqli jamoat arboblari, fan, biznes va madaniyat namoyan-dalari ishtirokida taqdimot va tadbirlarni o‘tkazishni nazarda tutishni taklif etdi.

Tez orada O‘zbekistonda Xitoy madaniyati kunlarini, kelgusi yil bahorida esa Xitoyda O‘zbekiston madaniyati kun-larini o‘tkazish mo‘ljallanyapti. Xitoy tilini o‘rganishda Toshkent va Samarqanddagi Konfutsiy institutining samarali faoliyati katta hissa qo‘shayotgan bo‘lsa, yosh olimlar o‘rtasidagi almashinuvni kengay-tirish rejalari belgilab olingan. Toshkentda Xitoyning yetakchi Sinxua universiteti va Pekin universiteti filiallarini ochish taklifi ilgari surildi.

Prezidentimiz nutqi yakunida do-nishmand xitoy xalqining “Kelgusi asr-niing baxti ushbu asrda quriladi”, degan maqolini eslar ekan, “Bugun biz sa’y-harakatlarimizni birlashtirgan va kuchay-tirgan holda insoniyatning “yashil” kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratmoq-damiz”, dedi. Demakki, bunda “yashil” kelajakni yaqinlashtirishga qaratilgan loyihalar, jumladan, “yashil” madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha global dasturning ishga tushishi ham muhim o‘rin tutadi.



WWW.YUZ.UZ



YUZNEWS



YUZ.OFFICIAL



YUZ.UZ



AGRAR TARMOQ

LOYIHA FRANSIYANIKI, MAHSULOT O‘ZBEKISTONNIKI

MEVA-SABZAVOT EKSPORTIDA YANGI YO‘NALISH

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bu borada dehqon va fermerlarga ko‘maklashish, daladagi mahsulotni qayta ishlab, eksportga tayyorlash jarayonlarini sifatli tashkil etishga qaratilgan agrologistika markazlari tashkil etilayotgani ayni muddao. Bunday markazlar dehqon va fermerlarni jamlab, o‘zbek brendi ostidagi meva-sabzavotlarni xorijga eksport qilishda muhim tizimga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiya-sida ham yurtimiz hududlarida shunday markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilangan. Bu borada jahon tajribasini o‘rganish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik hamda ular tomonidan ajratilayotgan mablag‘ni samarali o‘zlashtirish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilayotgan “Bog‘dorchilikning qiyamat janjiri infratuzilmasi” loyihasi shulardan biri. Loyihaning umumiy qiymati 244,75 million dollar, asosiy qismi OTB mablag‘lari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu hafta poytaxtimizda mazkur loyihaning taqdimoti o‘tkazildi.

Toshkent viloyati import bo‘yicha xabga aylanadi

— Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, saralash, qadoqlash, saqlash, iste‘molchiga yetkazib berish hamda ulgurji bozorni o‘z ichiga olgan yirik agrologistika komplekslarini tashkil etish loyihaning maqsadidir, — deydi loyiha rahbari Jasur Matrasulov. — Buning uchun yurtimizda umumiy quvvati 1,7 million tonnalik 3 ta yirik agrologistika markazi quriladi. Ular Toshkent viloyatidagi 30, Samarqanddagi 22 va Andijondagi 18 gektar yerda barpo etiladi. Loyihaga Fransiyaning “Ranjis-Samaris” kompaniyasi jalb qilingan. Ular komplekslarni qurish va xalqaro savdo

markasi ostida faoliyatini muvaffaqiyatli tashkillashtirish jarayonida qatnashadi. Gap shundaki, ushbu kompaniya bugungi kunda Parij atrofidagi yillik aylanmasi 9 milliard yevro bo‘lgan dunyodagi eng yirik oziq-ovqat logistika markaziga ega-lik qiladi. Yevropada yetakchi brendlardan biri bo‘lib, jahon bo‘ylab ulgurji oziq-ovqat bozorlarini qurish va tashkil etishda ilg‘or tajribaga ega.

Loyiha avvalida “Ranjis-Samaris” kompaniyasida bo‘lib, uning faoliyati va filiallarini ham o‘rgandik. Fransuz kompaniyasining modeli bizga ma‘qul keldi va kelishuvga erishdik. Ular qo‘ygan asosiy talablardan biri kompleksning yer maydoni kichik bo‘lmasligi kerak edi. Boisi, komplekslar bir marta qurilib, shu bilan to‘xtab



qolmaydi, keyinchalik ham kengaytirib boriladi. Qolaversa, mutaxassislarni kompaniyaning o‘zi o‘qitib, komplekslar qurib bitkazilgach, ish jarayonini tashkillashtirishda ham ko‘maklashadi.

Mutasaddilarning aytishicha, loyiha 2019-2024-yillarga mo‘ljallangan edi. Bi-



bir necha yildan beri ushbu loyiha ustida ishlanyapti. Loyiha yirik ko‘lamli bo‘lgani bois, bosh rejalarni ishlab chiqishdan oldin uni o‘rganish ishlari olib borildi. Xususan, hududlarning bozor konyunkturasi, transport qatnovi, atrof-muhit, infratuzilma va unga ulanish nuqtalariga texnik shartlar, kadastr hujjati, toposyomka, geologiya va gidrogeologiya ishlari amalga oshirildi. Ayni paytda Andijon hamda Samarqandda agrologistika markazini qurish bo‘yicha bosh reja ishlab chiqilib, taqdimoti o‘tkazildi.

Fransiya kompaniyasi loyiha istiqbollari yuqori baholamoqda. Ular hamkorlikni keyinchalik ham davom ettirish niyatida. “Biz O‘zbekistonda zamonaviy saqlash tizimini yo‘lga qo‘ymoqchimiz. Bu hamkorlikdagi birinchi va eng uzoq muddatga mo‘ljallangan loyihamiz. Hozir asosiy vazifamiz qurilishni boshlab olish. Kompleks ishga tushganidan keyin ham bu yerda kompaniyamiz vakillari doim bo‘ladi va ishtirokchilarga yordam berib boradi. Asosiy maqsadimiz O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdan iborat”, deydi “Ranjis-Samaris” vakili Bertrand Ambroiz.

O‘rganish jarayonida Osiyo taraqqiyot

banki mutaxassislari ham qatnashdi. Ikki tomon birgalikda barcha hududlar salohiyatini ko‘rib chiqqach, loyihani amalga oshirish uchun yuqoridagi 3 hudud — Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlari tanlandi. Ushbu hududlar eksport va import uchun ancha qulay. Masalan, Andijon va Samarqand viloyatlari, asosan, eksportga mo‘ljallangan. Chunki ushbu hududlar va atrofidagi viloyatlarda ko‘p miqdorda meva-sabzavot yetishtiriladi. Ularni bir joyga olib kelib, qayta ishlash va eksport qilish samarali. Toshkent viloyati esa import bo‘yicha xabga aylanadi. Mamlakatimizga kirib keladigan mahsulotlarning asosiy qismi shu yerdagi agrologistika kompleksida to‘planib, yurtimiz bo‘ylab tarqatilishi rejalashtirilgan.

Mutaxassislarni fransuzlar tayyorlaydi

Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, loyihaning umumiy quvvati 1,7 million tonna, eksport hajmi esa 956 ming tonnani tashkil etadi. Agrokomplekslar ishga tushgach, 4 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratiladi. Loyiha doirasida meva-sabzavotchilik bilan shug‘ullanuvchi fermer, dehqon xo‘jaliklari jalb etiladi.

Boisi, majmua o‘z nomi bilan agrar soha vakillari, xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga mo‘ljallangan, shu yo‘nalishdagi barcha xizmatlarni taklif etadi. Mahsulotni daladan yig‘ib olishdan tortib, saralash, qadoqlash, qayta ishlash va iste‘molchiga yetkazib berish ushbu tizim orqali amalga oshiriladi. Bu yerda fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyat yuri-

tishi uchun joylar ajratiladi. Transport, bojxona, hujjatlarni rasmiylashtirish kabi 10 dan ortiq xizmat shu yerning o‘zida ko‘rsatiladi.

Zamonaviy kompleksda mahsulotni standartlashtirish laboratoriyalari, mehmonxona, biznes uchrashuvlar uchun konferens zallar quriladi. Bu yerda hatto chiqindini qayta ishlaydigan liniyalari ham bo‘ladi.

Ayniqsa, eksportbop mahsulotlarni jahon standartlari asosida tayyorlash, ilg‘or texnologiyalar bo‘yicha qadoqlash va sifatli yetkazib berishga alohida e‘tibor qaratiladi. Umuman, ushbu kompleks mamlakatimiz meva-sabzavot eksportini bir necha barobar oshirishi, o‘zbek brendi ostidagi mahsulotlarimizning yangi bozorlarga kirib borishini ta‘minlashi ko‘zda tutilgan. Bu jarayonda agrologistika kompleksi agrar soha tadbirkorlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, zarur ko‘maklarni berish vazifasini bajaradi.

— Mahsulotlarni nafaqat eksport qilish, balki boshqa davlatlardan qabul qilib olish ham muhim jarayon, — deydi J.Matrasulov. — Qonun-qoidasini bil-mang qatbirkor bu masalada jiddiy muammolarga duch kelishi mumkin. Shu bois, kompleksda importga ko‘maklashish borasida ham zarur xizmatlar ko‘rsatiladi. Yana bir jihati, fransuzlar bu yo‘nalishlarda mutaxassislarni o‘zlari o‘qitib, eng ilg‘or tajribalar bilan tanishtirib boradi. Demak, Fransiya kompaniyasi bilan hamkorlikda barpo etiladigan agrokomplekslar yurtimiz qishloq xo‘jaligi sohasida qo‘shimcha imkoniyatlar barobarida yangi professional yo‘nalishlarni ham ochib beradi.

Ayni vaqtda Andijon, Samarqand viloyatlari va ularga tutash hududlardagi dehqon, fermer xo‘jaliklari mas‘ullari bilan suhbatlar o‘tkazilib, agrokompleks imkoniyatlari haqida ma‘lumotlar berilyapti. Soha vakillari mana shunday zamonaviy agrokomplekslarda faoliyat yuritishga katta qiziqish bildirayotgani, ayniqsa, quvonarli. Xalqaro hamkorlikdagi yirik loyiha esa mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini zamonaviylashtirish yo‘lidagi yana bir muvaffaqiyatli qadam bo‘ladi.



SHARH



Norbo‘ta BOBOXOLOV,
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ raisining iqtisod va moliyaviy masalalar bo‘yicha maslahatchisi, iqtisodiyot fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Ushbu qaror qabul qilinishidan oldin dunyodagi qator rivojlangan davlatlarning temir yo‘l transportida amalga oshirgan islohotlarini o‘rganib, xalqaro tajribalar asosida yangi yo‘nalishlar belgilab olindi.

Avstriya, Belgiya, Germaniya, Italiya, Latviya, Polsha, Gretsiya kabi davlatlarda infratuzilma va transport xizmatlari institutsional va taktik ravishda alohida yurisdiksiyaga ajralgan, temir yo‘l xolding tarkibidan chiqib, mustaqil subyektgacha aylangan. Shaharlararo yuk tashish aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilgan, yo‘lovchi tashish hamda transport xizmatini ko‘rsatuvchi infratuzilma takomillashtirilgan, shoxobchalarga xizmat ko‘rsatish huquqi berilgan. Shuningdek, xolding rahbariyatiga temir yo‘l xizmatlarining umumiy boshqaruvi va nazorati funksiyasi berilgan.

Jahon tajribasida temir yo‘l infratuzilmasi obyektlarini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qarab kelingan. Jumladan, Rossiya, Qozog‘iston va boshqa qator davlatlarda temir yo‘l infratuzilmasi alohida ajratib olinib, davlat tasarrufida qoldirilgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa tashish xizmatlari xavfsizligini ta‘minlash, yangi temir yo‘l liniyalari qurish, elektrlashtirish darajasini oshirish, optik tolali liniyalari yordamida aloqa kanallarini mustahkamlash hamda yo‘llarni kapital ta‘mirlash loyihalarini amalga oshirishga erishishdir.

Shulardan kelib chiqib, qaror ijrosi doirasida O‘zbekiston temir yo‘llarining yo‘l xo‘jaligi, elektr ta‘minoti, signallashti-

rish va aloqa, lokomotiv xo‘jaligi, yagona dispatcherlik markazi va yuk stansiyalari ish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi “Temiryo‘linfratuzilma” AJ tashkil etiladi.

Temir yo‘l orqali yuk tashishda asosiy ustunlik moliyaviy va vaqt xarajatlari muvozanatidir. Bu savdo va ishlab chiqarish korxonalarning muvaffaqiyati uchun o‘ta muhim. Jahonning qator rivojlangan transport kompaniyalari faoliyatiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, yuklarni sug‘urtalash, “eshikdan eshikkacha” formatida yetkazib berish, zarur hujjatlarni tayyorlashda yordam berish kabi qulayliklarni ko‘rishimiz mumkin. Mazkur xalqaro tajribadan kelib chiqib, qaror ijrosi asnosida yuk tashish xizmatlarini amalga oshirish, yuk vagon va konteyner xo‘jaligini saqlash va rivojlantirish, multimodal “eshikdan eshikkacha” tashuvlarni yo‘lga qo‘yish, logistika markazlari va terminalarini tashkil etish bo‘yicha “Temiryo‘lkargo” AJ tashkil etiladi.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad respublikamizning tranzit hamda eksport salohiyatini oshirish, mahsulotlarimizni dunyo bozoriga qisqa muddatda va raqobatbardosh narxlarda olib chiqishdir. Bu ishlar Taraqqiyot strategiyasida nazarda tutilgan bo‘lib, tranzit yul hajmini hozirgi 10 million tonnadan 15 million tonnaga yetkazishga zamin yaratadi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari uchun temir yo‘l orqali yuk tashish xizmatini ko‘rsatuvchi vagon operatorlarini erkin tanlash huquqi beriladi. Bunda xususiy operatorlarga temir yo‘l infratuzilmasi va lokomotiv xizmatlari teng huquq asosida taqdim etilishini nazorat qilish mexanizmi ishlab chiqiladi. Temir yo‘l xizmatlari ko‘rsatishda iqtisodiy va moli-

yaviy salohiyati yuqori bo‘lgan yo‘nalish va sohalarga mustaqil rivojlanish, jumladan, mahalliy va xalqaro moliya bozorlariga chiqish hamda davlat ko‘magisiz kredit resurslarini jalb qilish uchun imkoniyat yaratiladi.

Hozirgi kunda tezyurar poyezdlarga mo‘ljallangan temir yo‘l tarmog‘i zamonaviy transport tizimi mahsuli bo‘lib, bor-yo‘g‘i 20 ta mamlakatda yo‘lga qo‘yilgan. Bundan bir necha o‘n yillar avval bir shahardan ikkinchisiga tezroq borish uchun faqatgina havo transportidan foydalanilardi. Endi shaharlar, hatto mamlakatlarni o‘zaro bog‘lovchi tezyurar poyezdlar paydo bo‘ldi.



Bugun dunyoda yaratilayotgan yangi, zamonaviy poyezdlar hatto samolyotlar bilan ham raqobatlashmoqda. Ak-sar rivojlangan davlatlar muvaffaqiyatli taraqqiyotida tezyurar poyezdlar masalasini muhim qism sifatida ko‘rmoqda. Chunki tezkor poyezdlar iqtisodiyot jadal rivojlanishining muhim omilidir.

Ana shu nuqtayi nazardan, yangi qaror doirasida yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezdlarda yo‘lovchi tashish xizmatini ko‘rsatish hamda yuqori

tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezdlar xo‘jaligini saqlash va rivojlantirish bo‘yicha “Temiryo‘lekspress” AJ tashkil etilishi diqqatga sazovor.

Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasidan yuqori tezlikda harakatlanuvchi 6 ta elektropoyezd, Chexiyaning “Skoda Transportation” kompaniyasidan 30 ta elektropoyezd xarid qilinishi kutilmoqda. Natijada Toshkent — Samarqand — Buxoro yo‘nalishlariga yuqori tezlikda harakatlanuvchi qo‘shimcha hamda Toshkent — Xiva yo‘nalishiga yangi elektropoyezdlar harakati yo‘lga qo‘yilib, yo‘lovchilarni manziliga yetkazish vaqti olti soatgacha qisqaradi.

Sog‘liqni saqlash, bolalar oromgohlari, madaniy-ma‘rifiy va sport obyektlarini saqlash, aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlardan tushadigan tushumni oshirish va ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirishga o‘tkazish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadida “Temir yo‘l ijtimoii xizmatlar” muassasasi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Raqamlashtirish ishlariga esa alohida e‘tibor qaratiladi va bunda yuk va yo‘lovchi tashishni boshqarishning tezkor avtomatlashtirilgan milliy axborot tizimi yaratiladi. “Yagona darcha” tamoyili asosida yuk tashish sohasida xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha mijozlar bilan o‘zaro hamkorlik axborot tizimi yo‘lga qo‘yilib, bu bojxona axborot tarmog‘i, jumladan, yuk tashishda tovarga ilova qilinadigan hujjatlar, Bojxona qo‘mtasirning “E-tranzit” axborot tizimi ma‘lumotlari “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning tegishli axborot tarmoqlariga o‘zaro integratsiya qilinadi. Bu orqali yuk vagonlaridan foydalanish hamda temir yo‘l chiptalarini xarid qilishda shaffoflikka erishish mo‘ljallanmoqda. Yuk jo‘natuvchi onlayn ravishda vagonaga buyurtma berishi, to‘lovni amalga oshirishi, jo‘natilgan yukning holati va dislokatsiyasi bo‘yicha ma‘lumot olishi mumkin bo‘ladi. Yo‘lovchilarga onlayn chipta sotib olish imkoniyati yaratiladi.

Albatta, bularning barchasi xizmat ko‘rsatish jarayonlarini jahon standartlari asosida tashkil etishga qaratilgan vazifalardir. Bunda ularning uzluksizligi, sifatligi, xavfsizligi, barqarorligi va ishonchiligi ta‘minlanadi.

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Chunki milliy iqtisodiyotda korporativ sektorni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun samarali boshqaruv, zamonaviy mexanizmlarni tezkor joriy etish davr tababidir. Shuni e‘tiborga olgan holda, temir yo‘l sohasidagi davlat ulushi mavjud kompaniyalarga korporativ boshqaruv tizimi tubdan yaxshilanib, sohaga malakali xorijiy menejer va mutaxassislar jalb qilinishi ko‘zda tutilmoqda.

Hujjat bilan temir yo‘lda tashish tarif-

lari tartibga solinib, yuklarni mahalliy, eksport va import yo‘nalishlarda tashish tariflariga taqdim etilgan chegirmalar 2024-yil 1-yanvardan bekor qilinaypti. Ularni faqat Vazirlar Mahkamasi qarori bilan taqdim etish tartibi joriy etiladi, yuk vagonlari va konteynerlarni taqdim etish hamda yuqori tezlikda harakatlanadigan va tezyurar poyezdlarda yo‘lovchilarni tashish xizmatlari tariflarini davlat tomonidan tartibga solish amaliyotidan voz kechilib, bozor tamoyillari asosida tartibga solish mexanizmiga o‘tildi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab mahalliy yo‘nalishlarda yo‘lovchilarni tashish xizmatlarini ko‘rsatishdan ko‘rilgan zararlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan temir yo‘l transportida yuk tashish xizmatlariga berilgan chegirmalarni davlat byudjeti hisobidan kompensatsiya qilish tartibi joriy etiladi.

Umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti infratuzilmasi obyektlari, lokomotivlarni taqdim etish, mahalliy yo‘nalishlarda yo‘lovchilarni tashish xizmatlari (yuqori tezlikda harakatlanadigan va tezyurar poyezdlar bundan mustasno) tariflari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi idoralararo tarif komissiyasi tomonidan tartibga solinadi. Mazkur komissiya “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan xususiy vagon va konteyner operatorlariga temir yo‘l infratuzilmasi va lokomotiv xizmatlari teng huquq asosida ko‘rsatilishini ham qat’iy nazorat qiladi.

Bugungi kunda jamiyat tarkibida tashish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan nosohaviy korxona va tashkilotlarni saqlab turish xarajatlarining yuqoriligi soha rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan edi. Shuni inobatga olgan holda, mazkur nosohaviy korxonalar aksiya pakettari ommaviy savdolar orqali sotuvga qo‘yilmoqda. Jamiyatning 19 ta nosohaviy korxonasi boshqaruv organlari va mahalliy iro etuvchi hokimiyat organlari tashkilotlariga keyinchalik samarali foydalanish uchun davlat balans qiymatida tekinga o‘tkazilishi kutilmoqda. Yuk tashish hajmini oshirish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash sharti bilan esa 42 ta temir yo‘l stansiyasi hududi auktsion orqali ijaraga xizmat ko‘rsatishga o‘tadi.

Albatta, qarorda belgilangan vazifalar va umuman, so‘nggi yillarda tizimda kechayotgan islohotlar “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish, xalqimiz farovonligini oshirish, transport salohiyatini yanada mustahkamlash, iqtisodiyotimiz, mintaqaviy va mintaqalararo savdo-sotiqni oshirish, qolaversa, xalqaro savdo-iqtisodiy, madaniy va gumanitar aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.



JARAYON

UYG‘UN VA MUSHTARAK TA‘LIM YOSHLAR KAMOLOTIGA XIZMAT QILMOQDA

Beshariq tumanidagi “Qiyali” mahalla fuqarolar yig‘inida “Obod qishloq” davlat dasturi doirasida 120 o‘rinli maktabgacha ta‘lim tashkiloti qurib bitkazildi. Umumiy qiymati 5 milliard so‘mlik qurilish va obodonchilik ishlari amalga oshirilgan maskanda kichikintoylar uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Bir qaraganda bu katta voqea ham emas. Ammo chekka qishloqda yangi bog‘cha ishgatushirilgani oilalar va kichikintoylar uchun katta imkoniyat eshiklarini ochdi.

Sababi Qiyali qishlog‘i tuman markazidan 30 kilometr olisda joylashgan. Asosan, dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan qishloqda shu kunga qadar zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkiloti yo‘q edi. Imkon topganlar uzoq tuman markazi yoki boshqa qishloqlardagi bog‘chalarga farzandlarini olib borishga majbur bo‘lar, imkoniyat yo‘qlarning farzandlari uyda qolardi.

— Bu yerga kelin bo‘lib tushganimga yarim asrdan oshdi, — deydi mehnat faxriysi Nasiba Ro‘yeva. — Bog‘cha qurib berishlarini so‘rab, ko‘p joylarga murojaat qilganmiz. Ammo amaliy yechim topilmagan. Ikki nabiram bog‘cha yoshida. Har kuni ularni bog‘chaga olib borib va olib kelishda turli qiyinchiliklarga duch kelganmiz. Uydin olisda bo‘lgani bois, xavotirimiz ko‘p edi. Endi hammasi ortda qoldi. Keng va yorug‘ xonalar, o‘yinchoq va o‘quv qo‘llanmalar, issiq va sovuv suv — barcha shart-sharoit yaratib berilgan.

Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi mashg‘ulotlar “ilk qadam” dasturi asosida o‘tkazilmoqda. Unda bolalarga do‘stona munosabatda bo‘lish, bilim-koinikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ilm-fan, tabiat, til va nutq, syu-jetli rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazlari tashkil etilgan. Har bir markaz mavzuga oid o‘yinchoq va qo‘llanmalar bilan ta‘minlangan. Bu mashg‘ulotlar qiziqarli va esda qolarli bo‘lishida qo‘l kelmoqda.

Yana bir jihati, o‘lis qishloqda bunyod etilgan ta‘lim tashkiloti mutaxassislari bo‘la turib, uyda ishsiz o‘tirgan o‘nlab xotin-qizlar bandligini ta‘minladi.

— Beshariq pedagogika kasb-hunar kolleji boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida tahsil olganman. Mutaxassisliligim bo‘yicha ish yo‘qligi bois, uyda o‘tirgandim, — deydi Nargiza Malikova. — Uy yumushlari va farzand tarbiyasidan ortib, qo‘shni qishloqdagi ta‘lim tashkilotlariga qatnab ishlashga imkoniyatim yo‘q. Mahallamizda zamonaviy bog‘cha qurilgach, men kabi o‘nlab yoshlarni ish bilan ta‘minladi. Endi oliy ta‘lim olishni ko‘zlab turibman.

Keyingi yillarda nafaqat tuman markazi, balki chekka va olis hududlarda ham zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlari qurish, nodavlat ta‘lim muassasalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, kadrlar salohiyatini oshirish, moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga e‘tibor ortdi.

— 2017-yilda davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni 44 ta, bolalar qamrovi esa 27 foizni tashkil etgan, — deydi Beshariq tumani maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi mudiri Shoiraxon Barotaliyeva. — Bugunga kelib, bolalar qamrovi 86,4 foizga yetdi. So‘nggi besh yilda 9 ta davlat va 240 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti ochildi. Bu yo‘nalishda malakali kadrlar tayyorlashga urg‘u berganmiz. Bundan besh yil oldin oliy ma‘lumotli pedagoglar soni sakkiz foizni



tashkil etgan bo‘lsa, hozir 57 foizdan oshdi. Yangi uy-joy massivlari, aholi gajum hududlarga zamonaviy loyihalar asosida maktabgacha ta‘lim maskanlari qurish, har bir bolaga boshlang‘ich ta‘lim uchun imkoniyat yaratish, ilmga ilk ishtiyok-qo‘nikmalarni shakllantirish, jismoniy va aqliy faoliyatini rivojlantirish hamda sog‘lom ovqatlanirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.



Quyoshli maktab

Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida 38-umumta‘lim maktabida quyosh panellaridan foydalanishga o‘tildi. Quyosh panellari yordamida olingan elektr energiyasi maktab ehtiyojini qoplab, ortganini ichki iste‘molga yo‘naltirish imkonini beryapti.

— Maktabimizga 15 kVt. soat quvvatga ega quyosh panellari o‘rnatganimizga ko‘p bo‘lgani yo‘q, — deydi maktab direktori Bahodir Mamajonov. — Endi chiroq o‘chib qolishlari barham topdi. Har oyda o‘rta hisobda 600 kilovatt-soatdan ortiq elektr energiyasi sarflaymiz. Kuz-qish mavsumida esa iste‘mol miqdori uch-to‘rt



hissa ortadi. Yangi qurilma tufayli elektr energiyasi bilan bog‘liq sarf-xarajatlar keskin tejalmogda.

Tahsilarga ko‘ra, 15 kilovattli quyosh panellari o‘rnatgan maktab bir kunda 10 kilovatttdan ortiq elektr energiyasini tejaydi. Bu miqdor kalendar kuniga bo‘lib chiqilsa, kutilayotgan foyda miqdorini chamalab olish qiyin emas. Bundan

kengayib bormoqda, — deydi tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi bosh mutaxassisi Diyorbek Malikov. — Shu kunga qadar 3 ta ta‘lim muassasasida quyosh panellari o‘rnatildi. Bu bir oyda o‘rta hisobda 10 million so‘mlikdan ortiq elektr energiyasini tejash imkoniyatini bermogda. Ayni kunda yana 12 ta ta‘lim muassasasida 95 kVt.li quyosh panellari o‘rnatish ishlari poyoniga yetmogda. Shu maqsadda muqobil energiyadan foydalanishning o‘ziga xos qulayliklari, mavjud imtiyoz va imkoniyatlari haqida tushuntirishlar olib boryapmiz. Shuningdek, quyosh panellari o‘rnatish, energiyatejamkor jihozlardan foydalanish borasidagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish choralari ko‘rilmoqda.

O‘quvchilar tayyorlayotgan mahsulotlar eksportga chiqarilmoqda

Maktab o‘quvchilarini ikkita xorijiy til va bitta kasbga o‘rgatish hamda 11-sinfni “Hayot maktabi” etib belgilash borasidagi tashabbus qisqa fursatda samarasini ko‘rsatmogda. Xususan, tumanda 4 ta sektor hududining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyati va ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ishchi kasblarga o‘rgatish bo‘yicha tayanch maktablar tashkil etildi. Mazkur maktablarda 17 ta kasbga yo‘naltirish va 8 ta chet tilni o‘rganish to‘garaklari yo‘lga qo‘yildi. Eng muhimi, ustaxonalarda yuqori sinf o‘quvchilari tomonidan tayyorlanayotgan turfa mahsulotlar ichki va tashqi bozorga ham sotilyapti.

33-umumta‘lim maktabida tashkil etilgan to‘garak faoliyati ko‘pga ibrat. Bu yerda yuqori sinf o‘quvchilari qiziqishlariga qarab, qandolatchilik, mebelsozlik va tikuvchilikka o‘rgatilmoqda. Mashg‘ulotlar nazariy va amaliy bilimlar bilan uyg‘un holda o‘tkazilayotgani yoshlar imkoniyatini kengaytirmogda.

10-sinf o‘quvchisi Sevara Rahmonaliyeva pazandalikka ishtiyogi kuchilligi, qolaversa, ustozlar o‘giti bilan malakasi va mahoratini oshirmogda.

— Maktabimizda bunday to‘garaklar ochildigani ayni muddao bo‘ldi, — deydi Sevara. — Yoshligimdan pishirgi tayyorlashga qiziqqan, uyimda buning uchun yetarli sharoit yo‘q edi. Bu yerda har tomonlama qulay va zamonaviy ishlab chiqarish jihozlari o‘rnatilgani men kabilarga qo‘l kelyapti. Biz tayyorlayotgan pishiriqlar respublika savdo tarmoqlari, hatto qo‘shni Tojikistonga ham sotilmoqda. Ishga qarab, oylik maosh olayapmiz. Bu esa hunar o‘rganish, intilish va izlanishga undamogda.

Maktabda o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etgan tadbirkorlik subyektlariga qator imtiyozlar bor. O‘quv binosi tuman hokimligi tashabbusi bilan ta‘mirlab berildi. Tadbirkorlar foydalanishga ishlari ijara bo‘lga hokim to‘lamaydi, elektr ta‘minotida ham imtiyozlar joriy etilgan.

— O‘quvchilarimizning kasbga qiziqishi juda yuqori, — deydi kasb-hunarga yo‘naltiruvchi maktab amaliyotchi psixologi Iqboljon Musayev. — Ayni kunda o‘quvchilar qiziqishi va mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan elektromontyor, payvandchilik, santexnika, plastik eshik va deraza romlari tayyorlash, avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida qo‘shimcha o‘quv mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yishni maqsad qilganmiz. Buning uchun imkoniyat va sharoitlarimiz yetarli. O‘quvchilar hunar o‘rganish asnosida daromad olib, oila iqtisodiyotiga oz bo‘lsa-da hissa qo‘shish imkoniyatiga ham ega bo‘lmogda.

Ta‘lim sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularni qo‘llab-quvvatlash borasidagi bu kabi islohotlar yaqin va olis hududlardagi iste‘dodli yoshlar kamolotiga xizmat qilmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.



ILM-FAN

ALLERGEN

ta‘sirchanlik pasporti

U nima va aholiga qanday naf beradi?

Baxtiyor RO‘ZIYEV,
Xalqaro molekulyar
allergologiya
markazi direktori



Keyingi yillarda butun dunyoda allergik kasalliklar keng tarqalayotir. Ekologiyaning buzilishi, noto‘g‘ri ovqatlanish, dori-darmonlarni tartibsiz qabul qilish, mavsumiy ta‘sir tufayli bu kasallikdan aziyat chekayotganlar soni tobora ortmogda. Hozirgi tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri sanalgan allergiya bilan kurashish o‘zbek olimlarining ham diqqat markazida. Innovatsion rivojlanish agentligi huzurida faoliyat olib borayotgan Xalqaro molekulyar allergologiya markazida jahon tibbiyotining eng so‘nggi allergiya diagnostika usullari tadqiq etilayotgani fikrimiz dalilidir.

Respublika ilmiy-ixtisoslashtirilgan allergologiya markazi, Immunologiya va inson genomikasi instituti hamda boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda zamonaviy mikrochiplar texnologiyasidan foydalangan holda molekulyar darajada allergik sezuvchanlik diagnostikasi o‘tkazilishi borasida muayyan natijaga erishildi.

Jumladan, Alex multipleks allergiya chipi orqali 2018-2021-yillarda Toshkent shahri va viloyatida o‘tkazilgan diagnostika usuli orqali bitta chipda 300 dan ortiq allergiyaga sezuvchan-

yanvar, fevral, mart oylari uchun allergenli o‘simliklarning haftalik va oylik gullash taqvimini ishlab chiqildi. Ayni paytda mamlakat bo‘ylab allergen o‘simliklarning changlanish monitoringi muntazam yuritilmoqda.

Hozir ayni kuz payti. Yaproqlarning to‘kilishi havoda allergen chang hosil qiladi. Ishlab chiqilgan taqvimda havo tarkibidagi chang miqdori aniqlanib, allergiya mavsumi oldindan xabar beriladi. Molekulyar allergologiya diagnostika usuli orqali bitta chipda 300 dan ortiq allergengaga nisbatan reaksiya



lik aniqlangan, 169 nafari nisbatan sog‘lomligi ma‘lum bo‘ldi. Boshqa viloyatlarda amalga oshirilgan tibbiy kub havoda uchrayotgan daraxt va o‘simlik gul changi miqdori haqidagi umumlashtirilgan natijalar, monitoring xulosalari haqida markaz veb-saytida (icma.uz) har haftalik ma‘lumotlar berib borilmoqda.

Bemorlarning allergiya ta‘sirchanlik molekulyar diagnostikasi biologik mikrochiplar asosida o‘tkazilayotir. Olingan ma‘lumot va biologik namunalarni (qon zardobi) biometriyalar bankida saqlanmogda hamda keyingi jarayonlarda foydalanish uchun ma‘lumotlar bazasiga kiritilgan. Ma‘lumotlar bazasida jami 1000 dan ortiq bemordan olingan namunalarni mavjud.

Allergiya ta‘sirchanlik xaritasini yaratish uchun olingan ma‘lumotlarga asoslanib, O‘zbekiston aholisining allergiya sezgirlik molekulyar profili o‘rganildi. Mazkur ma‘lumotlar 2021-2023-yillar uchun taqvim asosida umumlashtirildi. Kelgusida ushbu yo‘nalish bo‘yicha ma‘lumotlar kalendar mamlakatning barcha hududida ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

Hozirga qadar Xalqaro molekulyar allergologiya markazi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirish, tasdiqlash va ijrosini nazorat qilish borasida bir qator ishlar bajarildi. Toshkent shahri, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Samarqand, Naman-gan viloyatlarida o‘rnatildi. Olingan natijalar tahlil qilinib, 2023-yilning

bor yoki yo‘qligi ko‘rsatiladi. Aholini mavsumiy allergiya chaqiruvchilardan xabardor qilish maqsadida 1 metr kub havoda uchrayotgan daraxt va o‘simlik gul changi miqdori haqidagi umumlashtirilgan natijalar, monitoring xulosalari haqida markaz veb-saytida (icma.uz) har haftalik ma‘lumotlar berib borilmoqda.

Bemorlarning allergiya ta‘sirchanlik molekulyar diagnostikasi biologik mikrochiplar asosida o‘tkazilayotir. Olingan ma‘lumot va biologik namunalarni (qon zardobi) biometriyalar bankida saqlanmogda hamda keyingi jarayonlarda foydalanish uchun ma‘lumotlar bazasiga kiritilgan. Ma‘lumotlar bazasida jami 1000 dan ortiq bemordan olingan namunalarni mavjud.

Allergiya ta‘sirchanlik xaritasini yaratish uchun olingan ma‘lumotlarga asoslanib, O‘zbekiston aholisining allergiya sezgirlik molekulyar profili o‘rganildi. Mazkur ma‘lumotlar 2021-2023-yillar uchun taqvim asosida umumlashtirildi. Kelgusida ushbu yo‘nalish bo‘yicha ma‘lumotlar kalendar mamlakatning barcha hududida ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

Hozirga qadar Xalqaro molekulyar allergologiya markazi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirish, tasdiqlash va ijrosini nazorat qilish borasida bir qator ishlar bajarildi. Toshkent shahri, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Samarqand, Naman-gan viloyatlarida o‘rnatildi. Olingan natijalar tahlil qilinib, 2023-yilning

chiqish loyihasi amalga oshirildi. Uning doirasida Xalqaro molekulyar allergologiya markazi va “Panaev Farms” fermer xo‘jaligi hamkorligida “Immune” noyob fermentlangan sut mahsuloti ishlab chiqildi.

Mahsulot SARS-CoV-2 virusiga qarshi antitanachaga ega, immunizatsiya qilingan simmental zotli, shuningdek, Avstriya va Germaniyadan olib kelingan golshteyn zotli sigirlar suti asosida yaratilgan. Fermentlangan bu sut mahsuloti ayni paytda do‘konlarda sotilmoqda. Ehtiyotkorlik bilan uzoq muddatli pasterizatsiya jarayoni sutning barcha foydali xususiyatlarini, shu jumladan, antitanachalarning me‘yorlash faolligini saqlaydi. Mahsulot qulupnay ta‘mli bo‘lib, butkul tabiiy.

2023-2026-yillarga mo‘ljallangan sigir suti oqsiliga allergiyasi bo‘lgan bolalar uchun allergik xavfsiz terapevtik aralashmani tanlash va sutga chidamlilikni nazorat qilish uchun har bir shaxsga oid “Kompas” test tizimini yaratish ilmiy tadqiqot loyihasi, allergen spetsifik immunoterapiyani tanlash va samaradorligini nazorat qilish uchun multipleks allergiya chipini, yashirin oziq-ovqat allergenlarini aniqlash texnologiyasini ishlab chiqish va oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimini yaratish amaliy-maqsadli loyihalari asosida ishlar reja bo‘yicha bajarilmoqda. Allergen o‘simlik changlari avromonitoring doirasida allergiya qo‘zg‘atuvchi o‘simlik changi to‘g‘risida ma‘lumotlarni doimiy tahlil qilish va yetkazish platformasini yaratish mavzusidagi amaliy loyiha ishlab chiqilib, ko‘rib chiqish uchun ilmiy kengashga kiritilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston aholisining allergiyaga ta‘sirchanlik molekulyar profilining elektron ma‘lumotlar bazasini to‘ldirish hamda olingan yangi ma‘lumotlarni muntazam kiritish, biologik materiallar (qon tarkibiy qismlari)ni saqlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Klinik bazalar hamkorligida allergik kasalliklar bilan og‘riqan bemorlarni qabul qilish, maslahat berish, sezuvchanlikning molekulyar profilini aniqlash maqsadida molekulyar allergiya diagnostikasi tekshiruv o‘tkazib kelinmogda.

Molekulyar allergologiya sohasidagi yutuqlar bizga yangicha qarash imkonini berdi. Allergiya patologiyasining rivojlanish mexanizmlarini ko‘rsatdi. Oziq-ovqat allergiyasi, xavf guruhlarini aniqlash, vaktsinalarni to‘g‘ri tanlash, yetarli immunoterapiya o‘tkazish ishlari nazorati yo‘lga qo‘yildi.

Xalqaro molekulyar allergologiya markazi tomonidan oziq-ovqat allergenlariga ta‘sirchanlikni aniqlash uchun aholining jinsi va yosh xususiyatlarini tekshirish, shuningdek, o‘simlik allergenlari va gulchanglarning tarqalishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish, begona o‘tlar gulchanglari sezuvchanlik xususiyatlarini aniqlash ishlari davom ettirilmoqda.

Molekulyar allergologiyani rivojlantirish borasida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ilmiy innovatsion loyihalar yo‘lga qo‘yilgan. Joriy yilning fevral oyida Serbiya Respublikasi Belgrad universitetining Molekulyar nutritsiologiya ilg‘or tadqiqotlar markazi bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha memorandum imzolandi. Hozir oliy ta‘lim va fan sohasida manfaatli hamkorlikni rivojlantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha muzokaralar olib borilmoqda.

Xalqaro molekulyar allergologiya markazi binosining suv ta‘minoti, muqobil energiya manbalari va suv resurslari sohasidagi faoliyatini to‘liq ta‘minlash uchun yashil texnologiyalar joriy etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, markazning ishlab chiqarish maydonlarida gipoallergen (allergiya paydo qilmaydigan) mahsulotlar ishlab chiqarish va gipoallergen oqsilning muqobil manbasini izlash ko‘zda tutilgan. Bu ishlarning barchasi xalqimiz salomatligini asrash va mustahkamlash yo‘lidagi sa‘y-harakatlarning mantiqiy davomidir.



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUDINING 540 YILLIGIGA



yuz.uz_news

HINDISTONDA BOBURIYLAR

saltanatining o'rnatilishi

Botir YO'LDOSHEV,
Temuriylar tarixi davlat muzeyi
ilmiy xodimi

Temuriylar saltanati tanazzulga
uchragan bir paytda siyosiy maydonga
chiqqan Zahiriddin Muhammad Bobur
temuriyodalarning nohamjihatligi
sabab nafaqat Samarqandni, balki
Movarounnahrni ham tark etishga
majbur bo'ladi.

Farg'ona va Samarqand taxtidan ayrilgan Bobur milodiy 1504-yili Hisor orqali Xurosonga yo'l oladi. Yonida uch yuzga yaqin odam bo'lib, hammasi juda nochor ahvolda, oyoqlarida choriq va egnilarida chopon bilan yo'lga tushadi.

Boburning bitta umidi — Hirot podshohi Sulton Husayn Mirzodan biror beklikni iltimos qilish. Hisor orqali uzoq safar ham juda qaltis edi. Hisor va Chag'oniya Xusravshoh qipchoq davlati tashkil topgan. O'z toj-taxtlaridan ajralgan Buxoro hukmdori Boysung'ur Mirzo, Qarshi hokimi Sulton Ali Mirzo va Kobulda otasi bilan yog'iylishib qolgan Mironshoh Mirzo kabi temuriylar Xusravshoh huzurida bo'lgan. Saltanat dag'dag'asiga uchragan Xusravshoh keyinchalik bu temuriyodalarning hayotiga barham bergan. Shubhasiz, Boburning hayoti ham o'ta xavf ostida edi. So'xdan chiqib, ilok yaylog'iga yetgan Bobur va uning odamlarini to Amudaryogacha Xusravshohning kishilari kuzatib boradi.

Termiz yaqinida daryoni kechib o'tgan Bobur erkin nafas ola boshlaydi. Hisor va Qunduzdagi yollanma mo'g'ul va aymoq navkarlari Boburga davlatxohlik izhori bilan arz qilishga tushadi. Shayboniyxonning Qunduzga yurish boshlagani xabarini olgan Xusravshoh ham Qunduzdagi saroyini tashlab, Kobul tomon yo'l oladi. Ittifoqdosh abulxayriylarga qarshi faqatgina Bobur kurasha olishi mumkin edi. Buni yaxshi anglagan Xusravshoh odamlari, hatto o'zi ham Bobur xizmatiga o'tadi.


Endilikda Bobur Hirotga emas, Kobulga yurishni davom ettiradi. Bu paytda Kobul arg'unlar qo'lli ostida bo'lgan. Arg'unlar Sulton Husayn Mirzo nomidan ish yuritishlarida, aslida, mustaqil hukmdor edi. Bobur esa Kobul taxtiga har tomonlama haqqi bor temuriyozda edi. Boburning otasi Umarshayx Mirzo dastlab Kobul hokimi bo'lgan.

Bobur Kobulni arg'unlardan tortib olish uchun yurishni davom ettiradi. Noliq qolgan Muqim arg'un ahd va shahd tuzib, joni omon qolganiga shukr qilib Xurosonga ketadi.

Bobur o'zi asos solgan yangi davlatni mustahkamlash va sarhadlarini kengaytirish, daxlsizligini ta'minlash, aholi turmush darajasini yaxshilash uchun tinim bilmay mehnat qiladi. Joylarda obodonchilik ishlariga katta e'tibor beradi. Bog'-roglar yaratib, suvsiz joylarga


suv chiqarib, dehqonchilikni kuchaytiradi. Chorvachilik orqasidan kun kechirib, tog'larda sovuq va og'ir sharoitda yashaydigan qavmlarni ko'chirtirib kelib, Kobul atrofidagi yangi qishloqlar bunyod qildiradi.

Bobur Kobul atrofidagi yo'larni sinchkovlik bilan o'rganadi. Movarounnahrda chiqqanida Kobulgacha o'zi yurgan yo'l'dagi daryolar, o'rmonlar, qishloqlar va qo'rg'onlarni batafsil yozib borgan. Sharqda Koshg'ar va Xo'tandan kelinadigan yo'llarni, g'arb



tomonda Qandahor yo'llari va ayniqsa, janubda Hindistonga boriladigan yo'llarni juda diqqat bilan o'rganagan. "Hinduston tarafidan to'rt yo'l chiqar", deb yozgan o'zining shoh asari "Boburnoma" sahifalarida va bu yo'llardagi dovonlar hamda Kobul, Nilob va Sind daryolari kechuvlarini sanab o'tgan. Bobur Kobulga kelgan paytlaridan boshlab Hindistonni zabt etish rejasini tuzgan. 1505-yildan boshlab Bobur Hindistonga bir necha marta yurish qiladi. Hindiston shimolidagi Bhira, Xushob, Chinob kabi viloyatlarni davlati tasarrufiga kiritadi. 1522-yili Qandahorni va yana ikki yildan so'ng esa Lohurini ham egallaydi. Bu paytda Boburning ulkan tajribaga ega qo'shini safida to'fongchi va to'pchilar ham bor edi.

1525-yili kuz fasli adog'ida Bobur Hindistonga oxirgi yurishini boshlaydi. Qish o'rtasida



Panjobga yetib kelgan Bobur qo'shinlari Milvat qo'rg'onini zabt etadi. Yana bir oydan so'ng esa Hisori Feruz qo'rg'oniga yaqinlashadi. Shahar dorug'asi Hamidxon boshliq afg'onlarga qarshi Bobur o'g'li Humoyun qo'shinini tashlaydi. O'n sakkiz yoshli Humoyun bu vazifani sharaf bilan ado etadi. 1526-yil aprel oyida esa Panipat maydonida Dehli sultoni Ibrohim boshliq yuz minglik qo'shin ustidan g'alaba qozongan Bobur Dehli va Agrani egallaydi. G'olib Zahiriddin Muhammad nomi bir haftadan so'ng Dehli jom'e masjidda xutbaga qo'shib o'qiladi.

"Bobur dunyoning istagan mamlakatini egallab olib, hukmronlik qilishga haqli edi, negaki uning tomlarida Chingizxon va Amir Temur qoni oqqan", deb yozadi hindistonlik davlat arbobi va tarixchi Panikkar Lohiy. Chindan ham Bobur avvaliga Ibrohim Sodiya elchi jo'natib, qadim turkka taalluqli yerlarni qaytarib berishni so'ragan edi. Zero, u Hindistonga ulug' maqsadlar bilan kelgan edi. Mamlakatni talon-taroj qilish emas, balki uni obodonlashtirish, yanada rivojlantrish niyatida bo'lgan. Shu ma'noda, navkarlarining mahalliy aholini talon-taroj qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Tevarak-atrofidagi kichik sultonliklar, rojaliklar va boshqa hududlarni ham asta-sekinlik bilan tasarrufiga kiritib boshlaydi, jumladan, Bayana, Janpur kabi qo'rg'onlarga Bobur o'z odamlarini tayin qiladi.

Davlati poytaxtini Agraga ko'chirganidan bir yil o'tib, rajputlar sardori Sangram Singh ikki yuz ming qo'shin bilan urushga otlanadi. Sekri ko'lga yondosh Kanvahiya qishlog'i yaqinidagi jangda Bobur bor mahoratini ishga soladi. Bu jang ham uning sharaffi g'alabasi bilan tugaydi.

Boburning Hindistondagi janglaridan yana biri Chanderi qamali deb ataladi. Avvallari musulmonlar qo'lli ostida bo'lgan bu shahar tog'li joyda joylashgan va hind rojalardan Medini Rao hukmronlik qilarg edi. 1528-yil boshida Bobur Chanderi qal'asini qamal qiladi. U hind jangchilari mardona kurashganini ham xolisona bayon qilgan. Noliq qolgan hind jangchilari

o'zlarining jauhar urflariga ko'ra, taslim bo'lmaslik uchun bir-birini o'ldiradi.

Shundan so'ng Bobur Hindiston sharqiga yurish boshlagan. 1529-yil may oyi boshidagi bu jang Boburning hayotidagi so'nggisi edi. Sarkarda bu jangda qo'llagan usulni hind tarixchilaridan D.Mahajan "artilleriya san'atining mohirona ko'lanilishi", deb baholagan. Daryoning chap sohilida turgan g'anamlari Bobur qo'shinalarining suvdan o'tishiga qattiq qarshilik qilganida, podshohning buyrug'i bilan bir necha o'nlab to'p balandlikka o'rnatilib, tinimsiz o'q yog'dirishi navkarlarning narigi qirg'oqqa o'tib olishini ta'minlaydi. Dushmanlar esa Bengaliyagacha qochib ketadi.

Shunday qilib, Zahiriddin Muhammad Bobur davlati sarhadlari shimolda Badaxshondan tortib, janubda Chambal daryosi va sharqda Bengal qo'tlig'igacha bo'lgan hududni egallaydi.

Bobur harbiy janglardan bo'sh paytlarida tasarrufidagi shaharlarda samarqandcha chorbog'lar bunyod ettirgan. Panipat, Dehli, Agra, Sambhal, Ayodha kabi shaharlarda ulkan masjidlar qurdirgan. Panipatdagi masjid hozir ham mavjud. Keyinchalik Bobur avlodlari yana uch yuz yildan ko'proq hind zaminida hukmronlik qilgan. Buyuk Boburiylar davlati vakillari Hindistonda bunyod ettirgan me'moriy obidalar bugungi kunda millionlab sayyohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda.

Faxrimiz shukki, boburiylarning ma'naviy merosi ham Hindistonda keng o'rganilmoqda. "Boburnoma" bir necha marta hind va urdu tillariga tarjima qilingan. Haydarobod, Rampur, Laknav shaharlarida Boburning nodir qo'lyozma asarlari va farmonlari saqlanadi. Bobur va Boburiylar davlati haqida Hindistonda o'nlab kinofilm yaratilgan. Varanasi shahrida so'nggi boburiy podshoh Abu Zafar Bahodirshoh nomidagi akademiya faoliyat yuritadi. Maktab va oliy o'quv yurtlarida boburiylar tarixi keng o'rganiladi. Bu esa buyuk ajdodimiz — shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga bo'lgan muhabbatimizni yanada ziyoda qiladi.



MUSHOHADA

BIZGA MOTIVATSION KITOBLAR KERAK(MI?)

O'nta kitob o'qigan odam o'n birinchisini o'zi yozadi, degan gap bor. Uning zamirida o'nta yaxshi kitobni o'qib chiqqan kishining fikrlash qobiliyati va qanday kitobni o'qish kerakligi haqidagi didi shakllanadi, kitob yozmasa ham bu borada o'z fikriga ega bo'ladi, degan qarash yotibdi.

Worldometer statistika sayti ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning o'tgan davri mobaynida 3 millionga yaqin nomdagi kitob nashr etilgan. Shubhasiz, bu juda katta raqam va insonning umri bir kunda chiqadigan kitoblarni o'qib chiqishga ham yetmaydi. Ammo ularni sara-lab, keraklarini o'qib chiqish mumkin.

Kitob do'konlariga borsangiz, badiiy asarlar bilan birga biznes va boshqa mavzularga yo'naltirilgan adabiyotlar har qanchonidan ko'payganiga guvoh bo'lasiz. Albatta, o'zining shaxsiy biznesi, ishi va hayotini yo'lga qo'yish niyatida yurgan, takvakkal qilishga cho'chib turgan yoshlarga motivatsion kitoblar kerak. Ammo bu kitoblarning hammasi ham yoshlarga o'z yo'lini topishlarida ko'mak bera oladimi? Umuman, ular necha zamonlar sinovidan o'tgan, o'z ustida ishlash, ruhni tarbiyalash, to'g'ri yo'l tanlashga oid asarlar o'rmini bosa oladimi?

Bunday turdagi kitoblarning o'qirmanlarini, asosan, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan, kollej-maktabni tamomlab, yangi hayot yo'lini boshlayman, deb turgan yoshlar tashkil qiladi va ularning asosiy maqsadi harakatlarda bo'lish, mehnat qilib, muvaffaqiyatga erishishga undashdan iborat.

Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy bundan bir asr avval "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining nafaqat yoshlar,

adabiyot muxlislari va keng ommaga mo'ljallanganini ta'kidlab, kitobning muqaddimasida "Men bu asari nohizonimni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobar ulug' adabiyot muhblari, axloq havaskorlarining anzori oliylariga taqdim qildim", deydi hamda asar davomida insonning kamol topishi, ilmiy-ijodiy yuksalishiga to'xtalib, sa'y va g'ayratda bo'lishga chorlaydi: "Kishi yosh vaqtida ilm va ma'rifat, hunar va san'atga bo'yin qo'yimasa, taraddud qilmasa, albatta, qora ishchi bo'lib qolur. Shariatga ters, qonunga zid bo'lmagan xizmatlarni qilmak ayb emasdur. Agar bunga ham bo'yin qo'ymay, bu ko'mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas deb, dangasalik qilib, ishsiz yursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdur".

Xo'sh, bugun kitobxonlar qanday kitoblarni o'qiyapti? Ular sotib olayotgan kitoblar Alisher Navoiyning bir umrlik angamlari-yu xulosalaridan yaraigan "Mahbub ul-qulub", Abdulla Avloniyning yuqori sinf o'quvchilari — katta hayot ostonasida turgan yigit-qizlarga ham o'git, ham darslik tarzida yozilgan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari bergan motivatsiyani bera oladimi? Poytaxtdagi kitob do'konlari, nashriyotlar va kitobxonlarning bu boradagi fikrlariga qiziqdik.



— Kitobxon sifatida odamlarning kitobga bo'lgan munosabati o'zgarгани meni xursand qiladi, — deydi Shavkat Bobomurodov. — Nashr etish, tarjima va sotuv jarayonlarida ham bir necha yil ishlaganman. To'g'ri, avvalgiday kitoblar o'n minglab nusxada chiqmayapti, adadi o'rtacha 1-2 ming. Biroq bozorgir bo'lgan kitoblar bor: biznesga oid, esselar, ayniqsa, turk esselari o'zbek kitobxon yoshlari orasida juda ommalashib ketgan. Badiiy puxta asarlarga ehtiyoj qanchalik katta bo'lmasin, turk esselari, psixologik deya urg'u berilayotgan tarjimalar eng ko'p sotiladigan kitoblar ro'yxatida yuqori o'rinda turibdi.

Men shu yil Ozarbayjonda kitob festivalida ishtirok etib, ulardan milliy adabiyot-

ga bo'lgan munosabat borasida ko'p narsalarni o'rganishimiz kerakligini his qildim. Ozar qardoshlarimiz o'z milliy adabiyotiga boshqacha mehr, hurmat bilan qaraydi, bu haqda suhbatga tortsangiz, ko'zlari chaqnaib ketadi. Bizda ham milliy adabiyotga e'tiborni oshiradigan islohotlar qilish vaqti kelgan, nazarimda.

Shuningdek, kitob rastalarida bir qancha tadqiqot (xorijda dissertatsiya uchun yozilgan) asarlarga ham ko'zimiz tushadi, ancha yaxshi yozilgan va xaridori ham ko'p. Buni ijobiy baholash mumkin. Quvonarlisi, oxirgi paytlarda aslyatdan tarjimalar ko'paydi. Endi o'quvchi har doim ham "sho'rvaning sho'rvasi"ni iste'mol qilishga majbur emas.

— Kitobxonda bugun xorijiy tildan tarjima qilinayotgan eng so'nggi adabiyotlarni o'qish imkoni borligining o'zi katta yutuq, — deydi "Asaxiy Books" loyihasi muharriri Muhabbat Sharifova. — Bunday asarlarni o'qib, o'zimiz bilgan, lekin jiddiy e'tibor bermagan ayrim odatlarimizga boshqacharoq qarashni ham o'rganyapmiz.

Ayniqsa, pul bilan muomala qilish, topayotgan daromadimizni qanday sarflash, xarajatlarni taqsimlash boida hammamizda ham savodxonlik darajasi zo'r deya olmaymiz. Natijada ko'pchilikda oddiy maosh to'lanadigan ishda ishlab bo'y bo'lishning iloji yo'q, degan qarash shakllangan. Muammoning yechimi esa oddiy — pul bilan bog'liq mayda odatlarimizni o'zgartirish. Loyihamiz doirasida chop etilayotgan kitoblar orasida odamlardagi ilmiyaviy savodxonlikni oshirishga yordam beradigan asarlar ham bor. Ilmiy-ommabop tilidagi ushbu asarlar kitobxonga mutolaa zavqi bilan birga aynan iqtisodiy, moliyaviy masalalarni soddada tilda tushuntiruvchi yaxshi maslahatchi bo'la oladi.

— Bugungi kunda kitob do'konlarini aylanan ekanimiz, asosan, motivatsion kitoblar ko'payganiga shohid bo'lmoqdamiz, — deydi shoir Alisher Sabriy. — 5-6 yillar oldin detektiv asarlar, oldi-qochdi qissalar qanday urchigan bo'lsa, hozir aksar chet tillardan tarjima qilingan yaxshi yashash, o'ziga ishonchni ta'minlash va hokazo mavzulardagi kitoblar ko'p bosilmoqda hamda kitob do'konlaridagi rastalarni to'ldirib turibdi. Demak, shu turdagi kitoblar xaridi yaxshi, degan xulosa chiqarsak bo'ladi.

Mayli, bunga qarshiligimiz yo'q, ammo kasallikning simptomi (belgisi)ni emas, ilidini topish va unga nisbatan to'g'ri chora qo'llash yaxshi samara berganidek, ruhiyatimizdagi kemptiklikni asl manbalar va ulardagi ma'no durdonalari bilan to'ldirsak, natijasi shoyon bo'lar edi. Bugun mumtoz adabiyotga oid manbalar sotuvda juda kam, aksariyat borlarining sifati ham talab darajasida emas. Nashrida kamchilik bor, chin mutaxassis ko'zidan o'tmagan, dizayni o'ziga tortadigan ahvolda emas. Bu esa mumtoz asarlarga mayli bor o'quvchilarning ham chor-nochor yuki yengil kitoblar bilan kifoyalanishiga omil bo'lmoqda. Xaridorsiz qolib ketishdan cho'chib, nashriyotlar bunday asarlarni nashr etishdan qochayotgan bo'lishi mumkin. Balki yechimni chekinishda emas, yaxshi reklamani yo'lga qo'yishda, targ'ibot ishini to'g'ri tashkil etishda ko'rish kerakdir? Chamanda gullar turfa bo'lgani ma'qul — "Kimdadir yuqar lola, kim atirgul shaydosi!"

Ta'kidlash kerakki, bugun odamlar kitobga qaytmoqda. Metro bekatlarida, avtobuslarda, bog'larda kitob o'qiyotgan kishilarni ko'rishga ko'zimiz o'rganib qoldi. Xorij tajribasi degan termin kitobxonlikka ham kirib keldi. Dunyo tan olgan olimlar, fan va davlat arboblari, mashhur kompaniya egalari tavsifiyay xulosalaridan iborat kitoblar o'zbek tiliga tarjima qilyapti. Muvaffaqiyatga erishgan kishilarning hayotiy tajribalari, ko'rgan-kechirganlari asosida yozilgan asarlar haqiqatan yoshlarga g'ayrat ulashmoqda.

Agar kitob odamning do'sti bo'lsa, u do'stining qanday bilim va saviyaga ega ekanini ham ko'rsatib beradi. Amerikalik yozuvchi Mark Tven aytganidek, ma'nan yetuk kitoblarni tanlab o'qing. Ahs holda, bir dasta qog'oz hayotingizni zaharlashi mumkin.

Rashid XO'JAMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046.

43312 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Shahzod G'afforov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manziliimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00